

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK_____**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”
QO‘YILDI”
Bo‘lim boshlig‘i N.I. Asqarov
Nabiyeva**

**“HIMOYAGA
Kafedra mudiri D.A.**

“_____” _____ 2016 yil
yil

“_____” _____ 2016

**“BADIY MATNNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI”
MAVZUSIDAGI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Bajardi:

**Feruza Tursunova
“O‘zbek tili va adabiyoti “yo‘nalishi
magistranti**

Ilmiy rahbar:

**M.Saidxonov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

ANDIJON - 2016

Badiiy matnning pragmlingvistik tahlili

MUNDARIJA

Kirish: Ishning umumiy tavsifi	3
1-bob. Badiiy matn va uning xususiyatlari.....	8
1. 1. O'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili.....	9
1.2. Matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi.....	11
2-bob. Pragmlingvistika va uning o'rganish ob'ekti.....	14
2.1. Lingvistik pragmatikaning umumiy masalalari	14
2. 2. Lingvistik pragmatika muammosining o'rganilishi...	19
2.3. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari.	21
2.4. Leksopragmatika. Pragmatik semalar	25
3-bob. Badiiy matnni pragmlingvistik tahlil qilish.....	29
3.1. Badiiy matndagi paralingvizmlarning interpretatsiyasi va pragmatik tahlili	29
3.2. Diskursiv matnning pragmatik tahlili.....	39
3.3. Badiiy matnda sukutning pragmlingvistik tahlili.....	45
3.4. Diskursda murojaat va uning pragmlingvistik tahlili..	47
Xulosa.....	66
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68
Ilovala.....	70

Kirish: Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tilshunosligi keyingi ellik yil ichida misli ko‘rilmagan darajadagi yutuqlarga erishdi. Bunga sabab – tashqi jihatdan jahon tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bo‘lib, til sathlarini o‘rganishda semantik yo‘nalishning ustuvorlashuvi natijasida fonosemantika, leksik semantika, morfesemantika, morfologik semantika, sintaktik semantika kabi yo‘nalishlar hosil bo‘ldi. Buning natijasida har bir til sathi ma’no va mazmun planida qaytadan ko‘rib chiqildi.

Tilga semantik-funksional yondashuv natijasida tilda matn tilshunosligi yo‘nalishi tadqiq etila boshladi. Matn til birligi sifatida tilshunoslikning keng o‘rganish ob’ektiga aylandi. Tilshunoslikda Boduen de Kurtene ta’kidlab o‘tgan ichki va tashqi tilshunoslik masalasida tashqi tilshunoslikni o‘rganishga e’tibor qaratildi. Kurtene tashqi tilshunoslik hakida gapirib, u tilning funksionalligidan kelib chiqqan holda butun muloqot jarayonini qamrab olishini, bu hodisa til amaliyoti bilan bog‘liqligini, unda uzatilayotgan ahborotni uzatuvchisi (adresant) hamda qabul qiluvchisi (adresat) ham e’tiborga olinishi ta’kidlanadi. Bu esa tilshunoslikning pragmlingvistika yo‘nalishining hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan.

Ichki jihatdan esa o‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi natijasida o‘zbek tilshunosligi ilmiy jihatdan qaytadan ko‘rib chiqildi. O‘zbek tilshunosligining yo‘nalishlari sifatida pragmlingvistika, paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvopoetika, matematik lingvistika, mentalingvistika kabilar tadqiq etila boshladi.

Pragmlingvistika tilshunoslikning yo‘nalishi sifatida 1970 yillardan tadqiqot obekti sifatida o‘rganila boshlagan. Albatta, tilning pragmatik tabiati xususida qadimdan turli fanlarda qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Sokratdan avval ham, so‘ng Aristotel davrida o‘rganilgan bo‘lib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv ekan, uni ro‘yobga chiqarishda so‘zlovchi va tinglovchi asosiy figura bo‘lishi, notiqlik san’atida fikr uzatishda ovozning sifat

o'zgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qo'shimcha nozikliklar berishi aytib o'tilgan edi. Bejizga o'tgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm g'oyalari targ'ib qilinmagan.

“Pragmalingvistikaning o'rganish ob'ekti nima” va “uning maqomini qanday belgilash mumkin” degan savol ko'p yillardan buyon tilshunoslar tomonidan o'rganish ob'ekti bo'lib kelmoqda. Tilning belgilar tizimi ekanidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, lisoniy belgilar bilan uni yaratuvchi, uzatuvchi va qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar pragmatikaning o'rganuv markazi sanaladi.

Pragmalingvistika a) nutqning yuzaga kelishi bilan bog'liq so'z va qurilmalarning qo'llanishiga oid pragmatik xususiyatlarnigina emas, balki turli sathdagi yordamchi so'z va morfemalar, so'z birikmasi, gaplarga xos pragmatik xususiyatlar; b) til va nutqning pragmatik funksional qonuniyatlari; v) nolingvistik vaziyatning tipik shakllari; g) sotsial maqsad, vazifalar; d) nutq sub'ekti, adresati, sotsial va ruhiy tip sifatida va faqat mana shularga asoslangan holda aniq nolingvistik vaziyatga muvofiq ravishda shaxsning suhbatdoshlarga qaratgan maqsad, vazifalarini o'rganadi". Umuman, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi verbal ifodada ma'lum maqsad hamda vazifalarga asoslangan his-tuyg'uga ta'sir etuvchi (perlokutiv) xususiy munosabat bayoni bu ishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Belgi masalasi semiotikada o'rganilishini e'tiborga olsak, muloqotning shakllanishi belgilarni uzatish va uni idrok etishdan iboratdir. Ma'lumki, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va uni qabul qilib olishdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pragmatika o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 70-yillaridan keng o'rganila boshladi. Avvaliga muloqot jarayoni bilan bog'liq masalalar pragmalingvistik tadqiq etilgan bo'lsa, keyinchalik diskursiv munosabatlar, kommunikatsiya, kommunikativ akt,

kommunikantlarning xususiyatlari o'rganildi. SHuningdek, kommunikativ akt tarkibiga kiruvchi holat, jarayon ham e'tiborga olindi. Muloqotning shakllanishida adresant va adresatning xususiyatlari (yoshi, kasbi, jinsi, qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi, bilim darajasi va b.), muloqot amalga oshirilayotgan holat kabi masalalar SHarifaxon Iskandarova, Siddiqjon Mo'minov, Feruza Karimova kabilar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, nutqiy jarayonda nonutqiy vositalarning ishlatilishi Abdulhamid Nurmonov, Abduzohir Abduazizov, Ma'murjon Saidxonov, G'afurjon Qambarov, Durdona Abduazizova va boshqalar tomonidan tadqiq etildi. SHu bilan birga pragmatik tadqiqot doirasiga kiruvchi presuppozitsiya hodisasi ham o'zbek tilshunosligida Abdulhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Usmonjon Rahimov kabi tilshunoslarning o'rganish ob'ektiga aylandi.

Shahriyor Safarovning pragmalingsvistik tadqiqotlar jamlangan "Pragmalingsvistika" kitobi ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning nazariy asosi sifatida katta ahamiyatga molik. Ushbu o'quv qo'llanmada SH.Safarov pragmatika, diskurs, kommunikativ akt, presuppozitsiya kabi til unsurlariga to'xtalib, ularning lingvistik maqomini belgilab nazariy jihatdan asoslab bergan. Asarda til va nutq munosabatlari, ularning farqli tomonlari til amaliyoti nuqtai nazaridan sharhlangan. Biz ham magistrlik dissertatsiyamizda yuqoridagi ulug' tilshunoslarning nazariy qarashlariga, ilmiy asoslangan fikrlariga tayangan holda ish tutdik.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasining "O'zbek tilini sistem-struktur jihatdan tadqiq etish" mavzusiga mos kelib, unda badiiy matnga pragmalingsvistik nuqtai nazardan yondashish e'tiborga olingan.

Tadqiqot maqsadi: ushbu magistrlik dissertatsiyasi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'ygan:

- Pragmatika va pragmalingsvistika haqida tushuncha berish;
- Badiiy matn va uning turlari haqida ma'lumot berish;
- Badiiy matnni pragmalingsvisik tahlil qilish;

- Badiiy matndagi paralingvizmlarni lisoniy tahlil qilish;
- Pragmalingvistik tahlil mukammal tahlil ekanligi.

Tadqiqot vazifalari: “Badiiy matnning pragmalingvistik tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida

- O‘zbek tilshunosligining keyingi yillardagi yutug‘i sifatida semantik-funksional yondashuv va uning natijasida pragmalingvistik tahlil tadqiq etildi;
- Pragmalingvistika atamalariga izoh berish bilan birga ularning maqomi ko‘rsatib berildi;
- Badiiy matn tushunchasi haqida ma’lumot berilib, bu kabi matnlar pragmalingvistik tahlil qilindi;
- Badiiy matndagi noverbal vositalarni tahlil qilish bilan badiiy matnni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilish ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot ob’ekti: mazkur dissertatsiyaning nazariy jihatlar SH.Safarov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, S.Mo‘minov, M. Saidxonov kabilarning ilmiy qarashlariga asoslangan, shuningdek, dissertatsiyaning ob’ekti sifatida o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlari olingan: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, G‘ulom Ali va boshqalar.

Tadqiqot metodlari: ushbu tadqiqot lingvistik tadqiqot metodlaridan tahliliy, chog‘ishtirma, tasnifiy usullar asosida amalga oshirilgan.

Himoyaga olib chiqiladigan masalalar va ishning ilmiy yangiligi:

- muammoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish asosida pragmatik tahlilning real holatga muvofiqligi aniqlandi;
- pragmalingvistik tahlilda nafaqat lisoniy birliklar, balki nolisoniy vositalar orqali ifodalangan ma’no ham tahlil ob’ekti sanalib kommunikativ akt to‘laligicha tahlil qilinadi;
- pragmalingvistik tahlil doirasiga tag ma’no ifodalovchi presuppozitsiya, insonning ma’noli harakatlarini ifodalovchi kinetika,

ovoz sifati orqali ma'no beruvchi fonatsiya kabi hodisalar kirishi va ularning tahlili badiiy matn tahlilida ahamiyatli ekani ta'kidlandi.

Natijalarning amaliyotga tatbiq etilishi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi natijalaridan adabiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda, badiiy asarni tahlil qilish jarayonida foydalanish mumkin. Ushbu tahlil usuli lingvopoetika uchun ham qo'l keladi.

Ishning sinovdan o'tishi: ushbu tadqiqot kafedra yig'ilishida hamda himoya oldi yig'ilishlarida muhokama qilingan, mutaxassislarning taklif va mulohazalari asosida takomillashgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Mavzu bo'yicha qator adabiyotlar bilan tanishish natijasida mavzuning nazariy va ilmiy jihati haqidagi qarashlarim boyidi. Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" asaridan ilmiy-nazariy xulosalar chiqardim. A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning presuppozitsiyaga oid qarashlarida ushbu hodisaning tilshunoslikdagi o'rni bayon etilgan. Shuningdek, M.Hakimov, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, M.Saidxonov asarlarida pragmatik tahlil, muloqot, noverbal vositalar bo'yicha nazariy jihatlar olinib ishimizga asos qilindi.

Natijalarning e'lon qilinganligi: magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha ikkita maqola e'lon qilingan. O'zbek tilshunosligi hamda boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi kafedralari tomonidan tashkillashtirilgan ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan. (F.Tursunova. Matn va uning yaxlitligi // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Andijon, 2015. 58-59-b.; F.Tursunova. Matn va uning kategorial birliklari // Boshlang'ich ta'lim: muammolar va echimlar. Andijon, 2015. 151-152-b.)

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya Kirish, 3 bob, Xulosa, Adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 70 sahifani tashkil etadi.

1-bob. Badiiy matn va uning xususiyatlari

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi.

Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V.Vinogradov o'zining «Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari» nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, «til» so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki »matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil material) ma'nosida; 2) «san'at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san'ati yaralibdi-ki, bu san'atning asosiy ifoda vositasi bo'lgan so'z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Buyuk ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidolari qo'llanmasida «Go'zal san'atlarda tovar (material) tovush, ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqiy bo'ladi; bo'yovlar, chiziqlar bo'lsa, rasm bo'ladi; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik bo'ladi; tosh yog'och, kirpich, ganj, tuproq bo'lsa, me'morlik bo'ladi; tan, mug'a (muqom, mimika) harakatlari esa, o'yun (tans) bo'ladi; gap, so'z esa, adabiyot bo'ladi» deb yozadi va adabiyotga shunday ta'rif beradi: «Adabiyot - fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir» (Fitrat, 12-13).

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o'zining «Adabiyot tildan boshlanadi» nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni

tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi»

Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdar quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomiik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi biian emas, so'zlar vositasi bilar yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi».

1.1. O'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin³.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati biian umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi.

1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi.

2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.

3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.

4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" (Doniyorov X., Mirzayev S., 173-174.) atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng. Albatta har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi»(Gorelikova M. I., Magomedova D.M.) Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D.N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz». Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi

o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so'zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko'pdan-ko'p o'tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma'noli so'z o'yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o'z-o'zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

1.2. Matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug'atda *tekst* so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: [r<lat] 1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham ayni ta'kid saqlangan: matn [arabcha - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi,

tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.

2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Avvalo, aytish lozimki, kishilar o'rtasidagi aloqakommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisiginigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy. To'g'ri, og'zaki nutqning so'zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyanparchalari-ni tiklash ilojsiz degani emas. Yaxlit og'zaki nuq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi tarzidagi hukm daryoda oqib turgan suv suv emas, balki bu "modda" faqat shishaga solingandagina suv paydo bo'ladi

degandek bir gapdir. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butuniik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov bu haqda shunday yozadi: "Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi». Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa

lingvistik atamalardan farqiash lozimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida "diskurs" termini ham bot-bot qo'llanadi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo'q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab "diskurs" va "matn" terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha *discours* - "nutq", "so'zlash" demakdir.

Xulosa qilib aytganda, matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir.

2-bob. Pragmalingvistika va uning o'rganish ob'ekti

2.1. Lingvistik pragmatikaning umumiy masalalari

Pragmalingvistika tilshunoslikning yo'nalishi sifatida 1970 yillardan tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganila boshlagan. Albatta, tilning pragmatik tabiati xususida qadimdan turli fanlarda qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Sokratdan avval ham, so'ng Aristotel davrida o'rganilgan bo'lib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv ekan, uni ro'yobga chiqarishda so'zlovchi va tinglovchi asosiy figura bo'lishi, notiqlik san'atida fikr uzatishda ovozning sifat o'zgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qo'shimcha nozikliklar berishi aytib o'tilgan edi. Bejizga o'tgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm g'oyalari targ'ib qilinmagan.

“Pragmalingvistikaning o'rganish ob'ekti nima” va “uning maqomini qanday belgilash mumkin” degan savol ko'p yillardan buyon tilshunoslar tomonidan o'rganish ob'ekti bo'lib kelmoqda. Tilning belgilar tizimi ekanidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, lisoniy belgilar bilan uni yaratuvchi, uzatuvchi va qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar pragmatikaning o'rganuv markazi sanaladi.

Belgi masalasi semiotikada o'rganilishini e'tiborga olsak, muloqotning shakllanishi belgilarni uzatish va uni idrok etishdan iboratdir. Ma'lumki muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va uni qabul qilib olishdir.

Kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish jarayoni ham murakkablasha bordi. Boshqa predmetlarda bo'lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoq, yangi tadqiqot ob'ekti yuzaga kela boshladi. Olimlar jahon tilshunosligida kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonini lingvistik xususiyatlar asosida ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya etadilar.

1. Tovush tili - eshitish asosidagi mazmun va shakl.

2. Imo-ishora - ko‘rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til.

Anglash tushunchasi bilan bog‘liq holda «his qilish» yo‘nalishi ham lingvistika ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Forobiy narsaning ob‘ektivligini, uning mavjudligi bizning sezgi a‘zolarimizga ta’sir etishini e’tirof etadi. Biz faqat o‘zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi a‘zolarimiz orqali bilib olamiz.

Ma’lumki, aloqa-aralashuv jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, uqish bilan uzviy aloqador ifoda formalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda formalarining qo‘llana boshlanishining o‘zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo‘la boshlaydi. SHuning uchun ham bularga xos semantik, sintaktik va, ayniqsa, pragmatik xususiyatlarni ma’lum lingvistik mezonlar vositasida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir.

Mashhur o‘zbek tilshunos olimlarining ta’kidlashlaricha, so‘zlovchi sub’ekt his-tuyg‘ulariga xos xususiyat belgilaridan ajralgan ma’lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas (Nurmonov A., Maxmudov N, 7-8.). Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg‘u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo‘ladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan sub’ekt nutqiga xos munosabat belgilari - nutqdagi barcha bo‘yoqlar yaxlit tarzda pragmatika deb nomlanadi. Bu ularning pragmatik tayinlanishi deb qaraladi.

Pragmatik hodisalar mohiyatini o‘rganish tilshunosdan mantiqiy va falsafiy mushohadalarni ham talab qiladi. SHuning uchun ham lingvistik pragmatika masalalari hodisani faqat lisoniy tahlil etibgina qolmasdan, balki uning mantiqiy, falsafiy va sotsial xususiyatlarini ham o‘rganadi. SHu ma’noda L.A.Kiselevaning pragramlingvistikaning dolzarb masalalari xususidagi qarashlari diqqatga sazovordir (Kiseleva L.A., 99.). Jumladan, pragramlingvistika a) nutqning yuzaga kelishi bilan bog‘liq so‘z va qurilmalarning qo‘llanishiga oid pragmatik xususiyatlarnigina emas, balki

turli sathdagi yordamchi soʻz va morfemalar, soʻz birikmasi, gaplarga xos pragmatik xususiyatlar; b) til va nutqning pragmatik funksional qonuniyatlari; v) nolingvistik vaziyatning tipik shakllari; g) sotsial maqsad, vazifalar; d) nutq subʼekti, adresati, sotsial va ruhiy tip sifatida va faqat mana shularga asoslangan holda aniq nolingvistik vaziyatga muvofiq ravishda shaxsning suhbatdoshlarga qaratgan maqsad, vazifalarini oʻrganadi". Umuman, soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi verbal ifodada maʼlum maqsad hamda vazifalarga asoslangan his-tuygʻuga taʼsir etuvchi (perlokutiv) xususiy munosabat bayoni bu ishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari quyidagilardan iborat:

1. Jumlaning kontekst bilan aloqador aspekti. Bunda jumla ichida deskriptiv boʻlmagan soʻzlar ishtirok etadi. Bunday soʻzlarni toʻgʻri qoʻllashda kontekstual vaziyat muhim sanaladi. Jumla orqali ifodalangan propozitsiyaning toʻgʻri apqlanishi uchun nutq ishtirokchilarining barchasi kontekstual vaziyatdan xabardor boʻlishlari zarur. SHundagina nutq subʼekti tomonidan bayon qilingan jumla tarkibidagi deskriptiv boʻlmagan soʻzlarning qanday nutqiy akti yuzaga chiqarish uchun xizmat qilayotganligi maʼlum boʻladi. Deyktik elementlarni tasnif qilishda ularni boshqa toʻliq maʼno ifoda etuvchi soʻzlarga qiyos qilinadi, soʻngra ularning kontekstdagi bajarayotgan vazifasi tahlil qilinadi. Toʻliq maʼno ifoda etuvchi soʻzlar jumladagi propozitsiyaning asosini tashkil qilsa, unda ishtirok etgan deyktik elementlar esa jumla propozitsiyasi ichida harakat qilib, nutq subʼektining yashirin maqsadlari haqida xabar berish funksiyasini bajaradi. «Deyktik ifodalarning xarakterli jihati shundaki, bu elementlar kontekst tarkibida aralash koʻrsatish funksiyasini ham bajaradi: Xonadon mezbani soʻradi: U kishi qani? Bu jumla bilan mezbanni emas, balki u

o'tirgan joy va dasturxondagi narsalarni ko'rsatdi. Deyktik ifodadagi referent bilan ko'rsatiluvchi ob'ekt o'zaro mos kelmaydi. Buni aralash ko'rsatish deb yuritiladi». (Abdurahmonov X., Mahmudov N.) Deyktik elementlarning nutqdagi qo'llanishi propozitsiya tarkibini kuchaytirish, muallifning ichki maqsadi bilan bog'liq biror axborotga ishora qilish funksiyasini bajarishdan iboratdir. Deskriptiv bo'lmagan elementlarning asosiy xususiyati ular ifoda etayotgan axborot asosiy propozitsiyadan tashqari qo'shimcha axborot ko'rinishining mavjudligiga ishora qilishdir. *Sen, men, hatto, faqat, singari* kabi so'zlar deyktik deskriptiv bo'lmagan so'zlar sanaladi. Mana shunday so'zlar ishtirok etgan kontekstlar tahlili bilan lingvistik pragmatika shug'ullanadi.

2. Kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko'rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o'rganish sohasi sanaladi. Nutqiy aralashuv jarayonidagi suhbatning maqsad va yo'nalishiga ko'ra P.Grays quyidagi to'rt prinsipni ko'rsatib o'tadi: a) axborotning to'liqligi; b) axborotning sifati (to'g'ri so'zlash); v) axborot yo'nalishidan chetga chiqmaslik; g) so'zlash manerasi (aniq va qisqa)¹. Bu yo'nalishga xos ishlar o'zbek tilshunosligida ham amalga oshirilgan. Jumladan, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.O'rinboev, S. Mo'minovlarning (O'rinboev B., Soliev A.; Mo'minov S.) nutq madaniyati va kommunikativ xulq yo'nalishidagi ishlari, P.Grays ta'kidlaganidek, lingvistik pragmatikaning umummasalalaridan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatika nazariyasining to'ldirilishida muhim o'rin tutadi. Kommunikatsiya jarayoni uchun axborotning bunday belgilarining bo'lishi tabiiy, biroq nutqiy etiket ko'rinishlarining bunday ijtimoiy axloq me'yorlari lingvistik pragmatikaning nazariy jihatlariga aloqador yo'nalishlarni ochish uchun xizmat qilmaydi degan xulosaga kelmaslik zarur. Pragmatika nazariyasi nima

uchun shunday? kabi savollarning asoslanishi bilan o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Jumladan, kattalarning kichiklarga munosabati minnatdorchilik tuyg'usini «*Barakallo*» so'zi bilan ifodalashi nutqiy etiket ko'rinishlaridan biridir, buni me'yoriy holat deb qaraladi. Biroq buning aksi bo'lgan holatlarda lingvistik pragmatika nazariyasif ehtiyojning tug'ilishi kuchaydi, chunki bunday hollarda «Nima uchun shunday?» tarzidagi savol ko'p ^ilshunoslarning diqqatini jalb qiladi. Kichiklarning kattalarga minnatdorlik tuyg'usi yoshlar nutqi uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy-performativ formulalar yordamida o'z ifodasini topmasa, bunday ifodalar lingvopragmatik izohga muhtoj bo'ladi.

Ma'lumki, til va nutq birliklarining har qanday ko'rinishi funksional qo'llanishiga ko'ra o'z o'rniga ega bo'ladi. Agar ana shu birliklar, nutq sub'ektining yoshiga ko'ra, qo'llanish o'rnini hamda uslubiy chetga chiqishiga ko'ra o'zgarsa, bu jarayonda, albatta, pragmatik tahlilga ehtiyoj ortadi.

3. Ifodaning sub'ektiv modal aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so'z va vositalarni lingvistik pragmatika o'rganadi. Matnda kirish va baho bildiruvchi so'zlarning qo'llanishi muallifning ob'ektiv olamga va o'zi ifoda etayotgan axborotga munosabatini belgilashda muhim o'rin tutadi.

4. Insonning ichki sub'ektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs nazariyasi ham pragmatikaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. (Mahmudov N., Nurmonov A.; 10-11-bet.)

5. Lingvistik pragmatikaning asosiy muammolaridan yana biri presuppozitsiyadir. Presuppozitsiyani gapning mazmuniy komponenti bo'lgan nutqiy aktlardan farqlash lozim. Masalan, «*Eshikii yop*» jumlasida «*eilikiing ochiqligi*» haqidagi semantik

mazmun presuppozitsiyadir. «Nutqiy kommunikatsiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim - xabardorlikka ega bo'lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi» (Mahmudov N., 29.). Ta'kidlab o'tilgan faktlar, bilimlar tilshunoslikda sotsial kontekst tushunchasini anglatib, u o'z mohiyati bilan nutq vaziyatini ifodalashiga ko'ra lingvistik pragmatikaning asosiy masalalari doirasiga kiritiladi. Umuman, presuppozitsiya hodisasi pragmatika muammosi sifatida mantiqiy-falsafiy kategoriya tushunchasi bilan uzviy bog'lanadi (Arutyunova N.D., Paducheva E.V., 19).

O'zbek tilining nazariy grammatikasida ham lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari alohida qayd etiladi.

2.2. Lingvistik pragmatika muammosining o'rganilishi

Gap semantikasini shu gap tarkibida qo'llanilayotgan so'zlarning faqat ob'ektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina to'la izohlash mumkin emas. Bunga gapning nutq jarayoniga, nutq vaziyatiga ega bo'lgan munosabatini aniqlashni ham qo'shish zaruriyati mavjud. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag'ridan lingvistik pragmatika o'sib chiqdi.

Shunday qilib, tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib, sintaksisda uch yo'nalish maydonga keldi: 1) sintaktika; 2) semantika; 3) pragmatika.

Sintaktik qurilmalar tarkibidagi bir lisoniy belgining boshqa lisoniy belgi bilan munosabatini o'rganuvchi soha sintaktika hisoblanadi.

Sintaktik qurilmalar tarkibidagi lisoniy belgilarning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabati semantikada o'rganiladi.

Pragmatika esa nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o'rganadi. Ko'rinadiki, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi o'zaro munosabat pragmatikaning asosiy o'rganish ob'ekti sanaladi.

Demak, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy akt kontekst bilan bog'liq holda echilgan joyda pragmatikaga ehtiyoj tug'iladi. Sintaktik qurilma tarkibidagi deskriptiv so'zlar tahlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo'lmagan so'zlar tahlili pragmatikaga qarab tortadi.

Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo'lmagan so'zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi.

Atash vazifasini bajaradigan, denotativ ma'noga ega bo'lgan so'zlar indikativ yoki deskriptiv so'zlar hisoblanishi yuqorida ta'kidlandi. Indikativ (denotativ ma'noli) so'zlarning ma'nosini kontekstga bog'liq bo'lmagan holda aniqlash mumkin bo'lsa, indikativ bo'lmagan so'zlarning ma'nosi faqat kontekst ichida, muayyan nutq vaziyatiga bog'liq ravishda ochiladi. SHuning uchun ham bunday so'zlar kontekst va nutq vaziyati bilab uzviy bog'liq, shartlangan bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ikki turdagi so'zdarni farqlash uchun B.Rassel ularni zooparkka qiyoslaydi. «Agar siz farzandingizga sher so'zining ma'nosini tushuntirmoqchi bo'lsangiz, uni zooparkqa olib borishingiz va «mana bu sher» deb ko'rsatishingiz mumkin. Lekin indikativ bo'lmagan *agar, bu* kabi so'zlarii ko'rsatish mumkin bo'lgan zoopark mavjud emas», - deydi V.Raesel.

Indikativ bo'lmagan so'zlar qatoriga kiruvchi olmoshlar, atoqli otlarning konkret ma'nosi faqat kontekstda, ma'lum nutq vaziyatida oydinlashadi. SHuningdek, indikativ bo'lmagan so'zlar qatoriga yordamchi so'zlar ham kiritiladi. Chunki bunday so'zlar ham kontekst yoki nutq vaziyati bilan bog'langandir.

Bulardan tashqari gap mazmunini so'zlovchi bilan bog'lab turuvchi shunday so'zlar borki, ular ham kontekst bilan zich bog'liq sanaladi. Har bir gap (jumla) ob'ektiv borliq haqida ma'lum axborot berish (nominativ yoki propozitiv funksiya) bilan birga, so'zlovchining bu axborotga munosabatini ham bildiradi.

Uzoq davrlargacha tilshunoslar so'zlovchining «mahsuloti» bo'lgan jumlaning o'rganishga asosiy e'tibor berdilar. Bu jumlaning yaratgan shaxs (sub'ekt) esa nazardan chetda qoldi. Vaholanki, har bir konkret jumlada so'zlovchining ruhiyati, madaniyati, dunyoqarashi va boshqalar o'z ifodasini topadi. SHu tufayli

ham soʻzlovchining gapiga qarab, uning kimligi haqida hukm chiqarish mumkin boʻladi. Bu esa til birligi boʻlgan gapning qoliplari konkret sharoitda jumlar orqali yuzaga chiqib, naqadar rang-barang qoʻshimcha axborot bildirishidan dalolat beradi. Bu qoʻshimcha axborotlar jumlaning alohida maʼno qatlamini tashkil etadi. Jumlaning obʼektiv voqelik bilan bogʻliq maʼnosi (propozitiv maʼnoni) asosiy, boshqa maʼnolar esa qoʻshimcha maʼnolar sanaladi.

Mashhur fransuz tilshunosi SHarl Balli birinchi tipdagi maʼnolarni diktum yoki diktal maʼno, ikkinchi tipdagi maʼnolarni esa modus yoki modal maʼnoga kiritadi. Konkret sharoitda voqelangan har qanday jumla diktal maʼnodan (maʼlum propozitsiya ifodalashdan) tashqari modusga ham ega boʻladi. Modus tarkibiga kiruvchi soʻzlovchining «meni» ham kontekst orqali yuzaga chiqadi.

Shunday ekan, ana shu soʻzlovchining shaxsi (ruhiyati, dunyoqarashi va boshqa tomonlari) haqida axborot beruvchi modusning qismi ham gap semantikasi bilan bogʻliqdir.

2.3. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari

Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari aynan nutq ishtirokchilari va nutqiy vaziyat tushunchasi bilan bogʻlanadi. Bizga maʼlumki, soʻzlovchi oʻz maqsadini ifoda etishi uchun olamda mavjud boʻlgan narsa, predmet, hodisalarning nomini bilishi hamda maʼlum grammatik qonun-qoidalar bilan tanish boʻlishining oʻzi kifoya qilmaydi. Soʻzlovchi bulardan tashqari nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerakki, bu, albatta, soʻzlovchi bayon qilmoqchi boʻlgan kommunikativ niyatni toʻgʻri ifodalanishida muhim amaliy qimmat kasb etadi. Soʻzlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatni aniq va toʻgʻri ifodalanishi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bogʻliq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilish ham talab qilinadi. SHu jihatlar toʻliq qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining oʻzaro muloqot jarayoni toʻgʻri amalga oshiriladi. Lingvistik pragmatikaning xususiy

masalalari nutq sub'ekti, nutq ob'ekti, nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

I. Lingvistik pragmatika nutq sub'ekti bilan bog'liq tarzda quyidagi xususiy masalalarni o'rganadi.

1. Nutq sub'ekti kommunikativ niyatining ifodalanish darajasiga ko'ra ifodaning oshkora va yashirin shakllari. So'zlovchi nutqiga xos ifodaning oshkora yoki yashirin shakllari o'z navbatida kommunikativ strategiya uchun yo'l ochadi.

2. Kommunikativ niyatni ifodalash strategiyasi lingvistik pragmatikaning bosh masalasi hisoblanadi. So'zlovchi bunda o'z ichki maqsadini tinglovchiga bayon qilish uchun u yoki bu ifoda usulini tanlaydi. Tanlash jarayoni bevosita tilshunoslikning stilistika yo'nalishi bilan uzviy bog'lanadi. Lingvistik pragmatika aynan mana shu nuqtada uslubshunoslik bilan hamkorlik qiladi. Ma'lum hodisani turli jihatiga ko'ra tahlil qiladi. Yirik tilshunos olim G'.Abdurahmonovning uslubshunoslik xususidagi qarashlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. «Uslub - so'zlovchining yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, xabarga, voqea, hodisaga, shaxs yoki predmetga shaxsiy yoki boshqa bir shaxsning munosabati, jumladan, ifodalangan qo'shimcha sub'ektiv fikrdir. SHuning uchun ham uslub muammolari haqida til fanining hamma sohalari bo'yicha ma'lumot berilgandan keyin alohida fan sifatida yoki grammatikaning bir bo'limi sifatida fikr yuritiladi. SHuning uchun mashhur filolog olimlar ta'riflaganidek, «Uslub - filologiya fanining toji, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining yuqori bosqichi» (A.V.Stepanov), «... har bir taraqqiy etgan fanniig qalbi» (R.A.Budagov), «Uslub bu - talant» (V.G.Belinskiy), «Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz. kerak» (Abdurahmonov G'., Mamajonov S., 86.). Fikr ifodalashning bunday usul va uslubi so'zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilaydi. Faqat semantik va grammatik ilmlarni bilish bilangina emas, balki hayotiy qonun-qoidalarni bilish va unga amal qilish natijasida kommunikativ

strategiya mahoratiga ega bo'lish mumkin. So'zlovchi nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha mazmundagi kommunikativ niyatning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etadi. Kommunikativ taktika, kommunikativ strategiya tushunchalari mohiyati ta'sirida lingvistik pragmatikaning xususiy muammolaridan yana biri tagma'no yuzaga keladi.

3. Tagma'no lingvistik pragmatikaning xususiy masalalaridan biridir. Tagma'no tushunchasining yuzaga kelishi uning umumiy va xususiy ko'rinishlari haqida, uning jahon tilshunoslik tarixida ishlanish darajasi, shuningdek, tagma'noning presuppozitsiyadan farqlanish xususiyatlarini lingvistik pragmatikaning dolzarb muammolari qatoriga qo'shadi.

4. So'zlovchining ob'ektiv olamni his qilish darajasi va ifoda plani. Ob'ektiv olamdagi voqea, hodisa va predmet haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va uni qayta aks ettirish darajasi so'zlovchining olam haqidagi bilimlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining o'z fikrini aniq, lo'nda va to'g'ri ifodalashi uchun uning olam haqidagi bilimlari mukammal bo'lishi lozim. So'zlovchining nutqi uning o'zligi haqida to'liq ma'lumot beradgiz;.. Lingvistik pragmatika nutqqa xos mana shu xususiyatlariga ko'ra psixolingvistika bilan uzviy bog'lanadi. SHu nuqtai nazardan pragmatik to'siq lingvistik pragmatikaning xususiy IV asalaridan biri sifatida dissertatsiyaning tadqiqot ob'ekti bo'ladi.

II. Nutq adresati bilan bog'liq ravishda lingvistik pragmatika quyidagi masalalarni o'rganadi.

1. Nutq interpretatsiyasi. Bunga ko'ra kontekst bilan bog'liq hodisalar, pragmatik vaziyat va presuppozitsiya, shuningdek, so'zlovchining ongli ravishda muloqot qonun-qoidalaridan cheklanishi kabi masalalarni pragmatika o'rganadi. 2. Perlokutiv akt tushunchasi tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi kommunikativ akt sifatida pragmatika masalalari qatoriga kiritiladi.

III. Kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabat bilan bog'liq ravishda:

1. Nutqiy aralashuv shakllari (xabar mazmunidagi dialog, do'stona suhbat, munozara va boshqa mazmuniy munosabatlar).
2. Nutqning ijtimoiy-etiket shakllari (murojaat shakllari, aralashuv uslubi).
3. Kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy akt ko'rinishlari (iltimos yoki buyruqning lingvo-ijtimoiy mohiyati).

IV. Aralashuv vaziyati bilan bog'liq ravishda deyktik belgilar interpretatsiyasi (Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar, 390.) o'rganiladi.

O'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatika yo'nalishini o'rganishga turtki bo'lgan quyidagi ishlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ma'lumki, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida tilshunoslik fanida matn lingvistikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Ulardan ba'zilarigina (Qo'ng'urov R.; Mahmudov N., 3-19; Maxmudov N., 28-32; Nurmonov A., 42-45; Saidxonov M.; Rahimov U.; Tohirov 3.) faqat lingvistik pragmatikaning markaziy masalalariga oid bo'lib, bular pragmatik presuppozitsiyani o'rganish uchun imkoniyat yaratdi. Boshqa tadqiqotlarda esa asosan «jumla», «matn», «nutq» muammolari bilan bog'liq hodisalar ustida ish olib borildi (Mamajonov A.; Abdupattoev M.). Kontekst masalalari xususidagi bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatikani o'rganishga yo'l ochdi. Lingvistik pragmatikaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, asosan, tilshunoslikda mazmuniy sintaksis muammolari bilan bog'liq yangi nazariy adabiyotlarning nashr qiliishi natijasidir (Nurmonov A. va boshqalar., 3-120; Mahmudov N., Nurmonov A.; Lutfullaeva D.). Bunday ishlarning amalga oshirilishi semantik-sintaksis masalalarini yanada murakkablashtiradi va pragmatik tadqiqotlar uchun yo'l ochadi.

Umuman olganda, lingvistik pragmatika tilshunoslik fanining yangi tarmog'i sifatida psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi, kommunikativ lingvistika, stilistika kabi

yoʻnalish muammolarini umumlashtiruvchi belgilarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Semantika hamda sintaktika masalalarining oʻzi xususidagina emas, balki bularga lingvistik pragmatika muammolarining ham qoʻshib talqin etish sof maʼnodagi lingvistik tadqiqotni yuzaga keltiradi.

2.4. Leksopragmatika. Pragmatik semalar.

Maʼlumki, leksemaning tashqi shakliy jihati uning mohiyati uchun ahamiyatsiz boʻlib, sistem tilshunoslik leksemalarning ichki mazmuniy tomoniga asosiy eʼtiborni qaratadi va xususiyliklarning umumlashmasi sifatida shakl va mazmun aloqadorligini tahlil qiladi. Bu fikr nazariy adabiyotlarda ham alohida taʼkidlanadi. Jumladan, «tashqi nutqning aniq moddiy shakli nutq vaziyati bilan, soʻzlovchining maqsad va imkoniyatlari bilan belgilanadi... Sistem-tilshunoslik nomemalarga koʻp ahamiyat bermaydi. Nomemaning aniq shakli nutq sharoiti bilan belgilanadi va u leksemaning mohiyatiga taʼsir etmaydi. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni - semema orqali va shunga koʻra leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi» (Neʼmatov H., Rasulov R., 55.). Tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida shakllanayotgan psixolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik lingvogeografiya va uslubshunoslik sohalarini umumlashtiruvchi lingvistik pragmatika yoʻnalishi, asosan, leksemaning ichki mazmuniy tomoniga eʼtibor berib, uning nutqdagi pragmafunksional belgilarini tadqiq etadi, SHu jihati bilan pragmatika sistem-tilshunoslik yoʻnalishi bilan uzviy bogʻlanadi. Leksemaning ichki mazmuniy tarkibi lingvistik pragmatika uchun moddiy baza hisoblanadi. «Til leksemalarining ilmiy tadqiqidagi asosiy tayanch nuqta boʻlib, leksemalarning ichki tomoni semema hisoblangani» (Neʼmatov H., Rasulov R., 55.) uchun lingvistik pragmatika ham asosan leksema sememalari yuzasidan ish koʻradi. Bu yoʻnalishdagi lingvistik pragmatikaning leksema sememasi bilan bogʻlanishi va

ana shu asosda ish ko'rishi xususidagi tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularda ilgari surilgan g'oyalar fikrimizni tasdiqlaydi (Aznaurova E.S.; Urisboeva G.).

Tilshunos olim H.Ne'matov va R.Rasulovlar semema tarkibiy qismlarini atash, ifoda hamda vazifa semalariga ajratadilar (Ne'matov H., Rasulov R., 55.). Bu semalar ichida ifoda semasi ayni pragmatika uchun tadqiqot ob'ekti bo'ladi. Ularning ta'kidlashicha, atash semalari ob'ektiv olamdaginarsa, buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni nomlaydi hamda kishi xotirasidagi tushunchalar bilan semal-f aloqasini belgilaydi. So'z kontekstda o'zining funksional qo'llanish o'rnini o'zgartirishi bilan atash semasi o'rnida so'zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma'nosi birinchi darajali mavqeni egallaydi, natijada pragmatik tahlilga ehtiyoj seziladi. *Bu odam tashkilotning chinori.* Bu misolda atash semasini bayon etuvchi «*daraxt*» semasi o'rnida «*mustahkamlik*» ma'nosi bilan namoyon bo'luvchi ifoda semasi birinchi darajali mavqega ega bo'ladi. Olimlar bunday semalarni yo'ldosh-atash semalari deb nomlaydilar. Bular konotativ ma'no bo'lganligi uchun ifoda semalari tarkibiga kiritish, bizningcha, to'g'riroq bo'ladi. Chunki «ifoda» so'zining lug'aviy ma'nosida har qanday sotsial kontekst mazmunini anglash mumkin. Bu haqda mualliflarning o'zlari ham to'g'ri ta'kidlaydilar: «chinor leksemasida esa ifoda semalari semema tarkibiga kirmaydi. Ammo nutq vaziyatida bu so'z ifoda semalariga ega bo'lishi mumkin». Ifoda semalari ham leksema paradigmasidan aniqlanuvchi semalar qatoriga kiritilib, bular pragmatikaning fundamental asosi hisoblanadi. Bu iboda semasiga xos uslubiy bo'yoq, munosabat ma'nolari bilan pragmatik maydonda umumlashadi.

Leksema sememasining tuzilishiga ko'ra turli darajadagi ma'no nozikliklari nutqdagi pragmasemantik vazifasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi: betaraf (neytral), uslubiy bo'yoqdor va nutq vaziyati bilan aloqador ishora vazifasini bajaruvchi shaklan leksema, mazmunan esa ichi bo'sh so'zlar: bu, shu, u, o'sha, hamma, ya'ni mazmuni kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bog'lanmaydigan so'zlardir.

Lingvistik pragmatikaning leksikologiya sohasi bilan munosabati uning quyidagi masalalarida aniq ko‘rinadi.

1. Leksema sememasining tarkibiy qismlarida neytral, uslubiy bo‘yoqdorlik va ularning nutqdagi qo‘llanish vazifasiga ko‘ra his-hayajon belgilarining (leksema sememasiga xos his-hayajon semantikasi) mavjud yoki mavjud emasligi bilan lingvistik pragmatikaning zahirasi sanaladi. Bularning barchasi nutqdagi funksional qo‘llanishda so‘zlovchining munosabatini ifodalash vazifasiga ko‘ra emotsional va neytral pragmatik maydonga umumlashadi.

2. Oziq-ovqatni iste‘mol qilish darajasiga ko‘ra leksema sememasida milliy o‘ziga xoslikning pragmatik farqlanishi. O‘zbeklar uchun «*Qo‘y go‘ltini kim sevmaydi!*» ruslar uchun «*CHO‘chsa go‘shini kim sevmaydi*», yaponlar uchun «*Ilon go‘shini kim sevmaydi!*» tarzi mazmunidagi qarash milliy o‘ziga xoslikni ifoda etganidek, ayni shu leksema sememasiga xos yo‘ldosh-atash semasi bilan pragmatik vazifa bajaruvchi qo‘zichoq, porosyonok, iloncha so‘zlari ham tilga xos milliy o‘zlikni ifoda etadi.

O‘zbeklar uchun suyish-erkalash ma’nosn: qo‘zichog‘im. Ruslar uchun suyish-erkalash ma’nosi: cho‘chqacham (porosyonok). Yaponlar uchun suyish-erkalash ma’nosi: iloncham.

Bu so‘zlarni anormal qo‘llash bilan uch millat uchun umumlashgan «suyish-erkalash» ma’nosi «haqorat» ma’nosi bilan almashadi. O‘zbeklar uchun *cho‘chqacham* yoki *iloncham*, ruslar uchun *qo‘zichovim (baran)* yoki *iloncham*, yaponlar uchun *qo‘zichozim* yoki *cho‘chqacham* (yaponlarda xalostilin moddasini ko‘paytiruvchi oziq-ovqat turlari kishilar salomatligiga zarar hisoblangani uchun uni inkor etadilar). O‘zbeklarda esa islomiy nuqtai nazariga ko‘ra cho‘chqa go‘shiti xarom deb hisoblanadi hamda erkaklarga xos hamiyatni yo‘qotadi degan qarashning mavjudligi uni iste‘mol qilishni inkor etadi. Ruslar uchun esa qo‘yning har tomonga dovdorab yurishi asos qilib olinadi-da,

o'zbeklarga xos «*qo'ydek yuvosh yigit*» iborasi rus tiliga so'zma-so'z o'girilganda, o'zbeklarga xos milliy mazmuniy tuzilish anormal holatga keladi. «*Spokoyno, kak baran*» kabi.

3. Leksema sememasining pragmatika yo'nalishi bilan bog'lanishining uchinchi jihatida leksema sememasining kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bog'lanish darajasining mavjud yoki mavjud emasligi. Bunga ko'ra «sememaning ongimizdagi tushunchalar bilan bog'lanishi faqat mustaqil leksemalardagina yuz beradi. Undov, taqlidiy so'zlarda, yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishning ko'rmasligimiz» ularni pragmatika bilan aloqasini ko'rsatib pragmatik tadqiq va talqin etishni talab qiladi. Leksemalarga xos mana shu belgilar tilshunoslikning leksikologiya sathi va pragmatikaning o'zaro munosabatini ifoda etadi.

3-bob. Badiiy matnni pragmalingvistik tahlil qilish

3.1.Badiiy matndagi paralingvizmlarning interpretatsiyasi va pragmatik tahlili

Tilga kommunikativ nuqtai nazardan yondashuv natijasida tildan nutqqa, nutqiy jarayonga e'tiborning kuchayganini kuzatish mumkin. SHunga ko'ra keyingi yillarda tilshunoslikning o'rganuv ob'ekti jonli muloqot tadqiqiga qaratilmoqda.

Inson faoliyatining asosiy katta qismi kommunikativ munosabatlardan iborat ekan va bu insonlarning yashash tarzini belgilab berar ekan, aloqa-aralashuvni shakllantirib beruvchi va vosita vazifasini bajaruvchi asosiy qurol matn sanaladi. Kommunikatsiya va matn o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini taqozo etadi. Qolaversa, matn nafaqat nutqiy aloqa birligi, balki, umuman, kommunikativ munosabatlarning ham birligidir. Agar biz ma'lum shaxsning nutqiy matnini tahlil etsak, u eng avvalo kommunikant tomonidan (adresant) irod qilinganini, bu esa boshqa kommunikantga (adresatga) uzatilganini e'tirof etamiz. Uzatilayotgan axborot tilning muayyan qonun-qoidalari asosida shakllangani (intralingvistika) uning matn talablariga javob berishini bildiradi axborotning adresant tomonidan adresatga uzatilishida kommunikantlarning o'zaro munosabatlari (ekstralingvistika) katta ahamiyatga molik bo'ladi. Adresat ushbu axborotni qabul qilib olgach unga munosabat bildiradi. Natijada kommunikantlar tomonidan o'ziga xos jonli aloqa-aralashuv hosil bo'ladi. Bunda kommunikantlarning xususiyatlari, kommunikativ holat ahamiyatli sanaladi.

Bu o'rinda dialog kommunikatsiyaning o'ziga xos shakli sifatida ajralib turadiki, unda aloqa-aralashuv ishtirokchilari axborot uzatishda nafaqat bir-birlarini eshitadilar, balki ko'radilar ham. Bu esa suhbat jarayonida lisoniy birliklardan foydalanishni qisqartirishga, ayrim hollarda minimal darajaga

kelishiga sabab bo‘ladi. Negaki, dialogning shakllanishi va uning muvaffaqiyatli chiqishida lisoniy birliklardan tashqari kommunikantlar nolisoniy vositalardan ham foydalanishlarini bildiradi. Natijada aloqa-aralashuvda samaradorlik, ta’sirchanlik, aniqlik, qisqalik, jonlilik, tabiiylik bilan ta’minlanadi.

Biz yuqorida o‘zbeklar aloqa-aralashuvida qo‘llanuvchi paralingvizmlar, ularning aloqa-aralashuvda ishlatilish o‘rinlari, semiologik xususiyatlari xususida to‘xtalib o‘tdik. Nolisoniy vositalarni verbal ifodalash, ularning nominativ xususiyatlari va semantik o‘ziga xosliklari badiiy asarda namoyon bo‘ladi. Badiiy asar ob’ektiv borliqni aks ettirar ekan, kishilarning o‘zaro muloqot jarayoni, ya’ni kommunikativ aktning tafsilotlari til birliklari orqali ifoda etiladi. SHuning uchun nolisoniy vositalarning ishlatilishi va ularning lisoniy ifodasi, semantik jihatlarini aniqlashda badiiy adabiyotning ahamiyati kattadir.

Nolisoniy vositalarning nominatsiyasi lisoniy birlik sifatida leksik-semantik, leksik-grammatik, struktur jihatdan lingvistik tadqiq ob’ekti sanaladi. Ularning matn tarkibida ishlatilishi, uslubiy-matniy xususiyatlarining denotativ tomonlari kinemalarning aralashuv jarayonida tabiiy qo‘llanishini anglatadi.

Paralingvizmlar nominatsiyasining badiiy matnda ishlatilish tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, ular asosan muallif nutqida qo‘llanadi.

Paralingvizmlar nominatsiyasi nolisoniy vositaning faol ishlatilishi natijasida kodlangan, barchaga tushunarli bo‘lgan tipik holatning ifodasi bo‘lgan standart nominatsiyadan, shuningdek, aloqa-aralashuv jarayonida kommunikantlar tomonidan individual qo‘llangan, murakkab kinematik jarayonni ifodalab beruvchi nostandart nominatsiyadan iborat bo‘ladi.

Masalan: qosh uchirmoq, ko‘z qismoq, bosh qimirlatmoq kabi kinemalar nominatsiyasi lug‘aviy birlik sifatida shakllangan va ma’lum ma’no ifodalab keladi. Lekin U: *«o‘lib qoldi» degan fikrni aytish bilan birga uni etkazish uchun ajnabiylarga tilini chiqarib, ko‘zini yumib, boshini o‘ng elka tomon yaqinlashtirib, ikki qo‘lini ikki tarafga ochiq holda yoyib ko‘rsatdi»,* - muallif nutqida kommunikativ aktdagi kishining imosi, ishorasi, gavda harakati

tasvirlash asosida lisoniy jihatdan berilmoqda va ushbu nominatsiya nostandart nominatsiya jumlasiga kiradi. SHu bilan birga garchi ajnabiylar tushunmasa-da u «o‘lib qoldi»dagi talaffuz ohangida ham adresatga qo‘shimcha axborot uzatadi. Ko‘rinib turibdiki, suhbatdoshlar aloqa-aralashuvda nutqiy vositaga qo‘shimcha ravishda ko‘z, til, yuz, elka, qo‘l, harakatlari va prosodik vositalar ishtirok etmoqda. Kommunikativ jarayonni to‘laligicha verbal ifodalashda dialogik akti yuzaga chiqaruvchi lisoniy va nolisoniy vositalar to‘plami ishtirok etadi.

Kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqaga kirishish insonning ijtimoiy faoliyati ekan, u shaxs sifatida o‘z fikrini o‘zicha bayon etishi va boshqalarning fikrini qabul qilib olishi tabiiy jarayon sanaladi. Insonlar o‘rtasidagi muloqotlarni kengroq planda oladigan bo‘lsak, bu individual holat bo‘lmay, jamiyatni rivojlantiruvchi ichki kuch hamdir. Bu esa aloqa-aralashuvni sotsiolingvistik, psixolingvistik faktorlar asosida o‘rganishni, pragmalolingvistikaning hukmronlik qilishini taqozo etadi.

Har qanday faoliyat ehtiyoj natijasi sanalar ekan, «uning ro‘yobga chiqishi uchun maqsadni amalga oshiruvchi muayyan vosita va usullar asosiy sanaladi» (A.N.Leontev,9.).

Kommunikativ aktda kommunikant suhbatdoshning faoliyatini (muloqot davomida) boshqarib boradi. Kommunikantlar suhbatdoshlar tomonidan uzatilgan har bir axborotga ratsional va emotsional jihatdan ta’sir etadi. Qayd qilingan axborot adresatda nimagadir ishonchni yoki, aksincha, bildiradi va shunga mos ravishdagi fikr ifodasi asosida aloqa-aralashuv davom etadi.

Aloqa-aralashuvning samarali amalga oshishida kommunikantlarning o‘zaro munosabati va kommunikativ akt yuzaga chiqishidagi holat ahamiyatli sanaladi. SHunga ko‘ra aloqa-aralashuv vositalaridan, jumladan, paralingvizmdan foydalaniladi va muloqotni boshqarish osonlashadi. (Gorodnikova M.D., 53.) Aloqa-aralashuv jarayonida nolisoniy vositalarning ishlatilishida, yuqorida ta’kidlanganidek, kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari katta ahamiyat

kasb etadi. Negaki paralingvizmning ishlatilishi nutq madaniyati talablari asosida bo‘lishi, nutqiy etika talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Muloqot rasmiy, ilmiy, jiddiy ish yuzasidan bo‘lganda yoki suhbat yuzaga chiqayotgan holat, sharoit ham paralingvizmlarning ishlatilishida ahamiyatli sanaladi. Biz yuqorida noverbal vositalarning ishlatilishi tabiiy ekanligi, u aloqa-aralashuvning atributi sanalishi xususida to‘xtalib o‘tdik. To‘g‘ri, lekin kommunikant o‘z nutqini (suhbatdoshning kim ekanligi, qanday sharoitda muloqot amalga oshirilayotganligi) o‘zi boshqara olgani kabi nolisoniy vositalaridan ham sharoitdan kelib chiqqan holda foydalanadi.

Xudoychi «Huzuri muborakka» kirib ta’zim qildi...

-CHaqirdingme? - dedi xon

-Taqsir!

-Izn beramiz!

Xudoychi qulluq qilgan qo‘yi orqasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turgan Anvarni «huzuri muborak» sari yo‘lga soldi.

Anvar «huzuri muborak»ning eshigida to‘xtab, ta’zim ado qildi va uning yonidagilarga ham yarim ta’zim ishorasini berdi.

-Ishlaring yoqshime, mirzo! – deb so‘radi xon.

-Duolar barakasida, qiblagoh, - dedi Anvar. (75-b.)

Ushbu matnda kommunikantlarning mavqei, lavozimidan va suhbatning mazmunidan kelib chiqqan holda muloqot o‘ta rasmiy tarzda kechmoqda. SHuning uchun ta’zim qilish, suhbat davomida lisoniy birliklardan chegaralangan holda foydalanish, nolisoniy vositalardan foydalanishda ham nutqiy etiketni saqlagan holda muomala olib borishi ko‘zga tashalanadi. Asarda dialogning yuzaga chiqishida g‘ayri oddiy holat (imo-ishorada, talaffuzda, mimik holatlarda va b.) bo‘lmagani sababli muallif nutqiga, muallif remarkasiga yoki izoh va sharhlarga hojat bo‘lmagan.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar muloqotning tashkil etilishi va borishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa kommunikantlarning

o‘zaro munosabatlardan, salomlashuvdan boshlanadi. Kishi biri ikkinchisiga ro‘para bo‘lganida o‘zaro ko‘rishuvdan ular o‘rtasidagi munosabatni va muloqotning qanday kechishini aniqlash mumkin bo‘ladi. Albatta, bu o‘rinda kommunikantlarning o‘zaro uchrashuvlaridan maqsad ham ahamiyatli bo‘lib, agar salomlashuv matnda nostandart nominatsiya bilan ifoda etilgan bo‘lsa va lisoniy vosita ham o‘ziga xos bo‘lsa, mavzu shunga yarasha mazmunda davom etadi.

-Assalomu allaykum, kuyov bola! Xo‘p salomatgina bormisiz? – Bog‘bon amaki bilan birinchi marta ko‘rishib turgan bo‘lsak ham eski qadrdonlardek quchoqlashdik. (O‘.H. So‘qqagina bevagina. T. SHarq 2008. 72-b).

Boshqa o‘rinda ko‘rishuvning paralingvistik shakli holatdan ayon bo‘lganini uchratish mumkin:

Notanish kishi ko‘rishish uchun quchoq ochgandi, go‘limni cho‘zib go‘ya goldim. (77-b.)

Salomlashuv (ko‘rishuv) jarayoni kommunikantlarning maqsadlarini namoyon etuvchi omil sanaladi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtirishga yordam beradi. YUqoridagi matnda ko‘rishish shakli orqali kommunikativ samara namoyish etilmoqda.

Kommunikativ aktda fonatsiyaning ahamiyati katta bo‘lib, adresat uchun uzatilgan axborotning qanday ohangda ekani ahamiyatli sanaladi. SHunga ko‘ra aytilayotgan fikrdan anglashiladigan mazmun ohangda namoyon bo‘ladi:

-Hih, tinchlikmi? Biror erga o‘t ketmaganmi? – dedi qoshlarini chimirib, xohlar xohlamas zardali, to‘ng ovozda, so‘ng ixtehzoli bir ohangda gapida davom etdi, - tavba, hurmat, etika, madaniyat degan narsalarning rivoji oldingamas, orqaga siljiyaptimi, deyman.

Ko‘rinib turibdiki keltirilgan matnlarda adresant ham, adresat ham ijtimoiy vazifa bajaruvchi shaxs sifatida gavdalanadi va, umuman, dialog jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni voqelantiruvchi, taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi, u haqda

o‘zaro axborot almashuvchi vosita sanaladi. Har qanday shaxs o‘rtasidagi muloqot ijtimoiylik kasb etadi.

Bugungi kunda kommunikatsiya jarayonida tilni so‘zlashuvchilarining til haqidagi amaliy bilimisiz, uni e‘tiborga olmagan holda to‘g‘ri va to‘liq o‘rganib bo‘lmashligi aniq bo‘lib qoldi (Nurmonov A., Iskandarova SH., 163.). Kommunikatsiya ijtimoiy faoliyat sanalar ekan, ular suhbatdoshlar qarashlari, qiziqishlari asosida boshqarib boriladi. Kommunikatsiyaning mavzusi kommunikanlar tomonidan belgilanadi. Kommunikatsiyada ijtimoiy vazifa tushunchasi aloqa-aralashuvda ijtimoiy masalalarni hal qilayotgan sub’ekt faoliyatini anglatadi (Kregmar A.O.). (Keyingi yillarda tilshunoslikda shaxs tushunchasining tilni o‘rganish markaziga aylanishiga sabab ham har bir sub’ektning o‘zaro muloqotga kirishishi ijtimoiy hodisa ekanligi va o‘sha suhbat natijasi jamiyat rivoji (yoki aksincha) uchun xizmat qilishi ahamiyatli ekani e‘tirof etildi. Davlat rahbarlari, diplomatiya korpuslari o‘rtasidagi muloqot, tashkilot, korxona, mahalla va hatto oiladagi suhbat ham ijtimoiylik kasb etadi.

Shaxs o‘z xususiyatlaridan va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aloqa-aralashuvda ishtirok etadi va uning nutqiy xulqi kommunikativ aktda namoyon bo‘ladi. SHaxsning aloqa-aralashuv jarayonidagi ijtimoiyligi – ijtimoiy hodisa bo‘lgan tildan foydalanishi, barcha lisoniy qonun-qoidalarga rioya qilish, nutqiy jarayonda suhbatdoshi bilan navbatma-navbat o‘z fikrini bayon etishi, muloqotda axborotning ta’sirli, tabiiy va jonli chiqishi uchun nolisoniy vositalardan foydalanishi kabi unsurlardan iboratdir. Lisoniy shaxsning faoliyatida nutqiy situatsiya katta ahamiyatga molik. Aloqa-aralashuvning ijtimoiy normasi muayyan holatda mavjud lisoniy birliklarni adresatga turli vositalar orqali ishonarli va ta’sirli etkazib berishdan iboratdir.

Bu o‘rinda, e‘tiborga loyiq tomoni shundaki, aloqa-aralashuv jarayonida dialogik nutq ijrochilari tabiiy holda yoki sharoitga ko‘ra nutqiy akti kuzatib boruvchi yoki uning o‘rnini bosuvchi paralingvistik vositalardan foydalanadilar. Aloqa-aralashuvning nutqiy oqimi nonutqiy vosita bilan almashishi, uni ta’kidlashi, isbotlashi, tasvirlashi, tavsiflashi mumkin.

-Mirzoning uyiga bir kishi yuborsak-da, uning xotini eriga taom keltirgan bo‘lib, zindonga borsa... SHu qanday bo‘lur ekan. Safar aka?

-Ma‘qul, uka, ma‘qul.

-Sizga-chi, Anvar?

Anvar, to‘g‘ri, ishorasini berdi. (A.Q. 240-b.)

Dialog ijrochilarining nolisoniy vositalardan foydalanishi ularning muloqot madaniyatini bildirib keladi. Kommunikant suhbatdoshi bilan munosabati va situatsiyadan kelib chiqqan holda paralingvizmlardan foydalanadi.

Boshliqning akasini ko‘rgach, u beixtiyor ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, qadamlariga xasanot dedi va tez-tez yurib qo‘sh qo‘llab ko‘rishdi, yuzida minnatdorlik va xursandlik balqib turar, ovozi ham tantanavor ehtirom ohangda jarangladi.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, kishilarning imo-ishoralari hamda talaffuz ohangi aloqa-aralashuvda kommunikativ samara beradi. Unda kommunikantlar o‘rasidagi munosabatlar, suhbat mavzusi va suhbatdoshlarning o‘zaro ta’sirlanishlari ahamiyatli sanaladi.

Keltirilgan matndagi dialoglarda kommumunikantlarning hissiyotlari gradual ko‘rinishda o‘sib boradi. Bu esa dialoglardagi muallif remarkasida aks ettiriladi.

-Siz bilan gaplashib olmoqchimiz? – xunuk vajohatda so‘z qotdi Irisqul to‘ng‘iz qarash qilib.

-Men bilan nimani gaplashasiz?!

-Gapiradigan gaplarimiz bor-da! – dedi Jonrid sarosimaga tushgan holda bo‘g‘iq ovozda.

-Sizlar bilan gapiradigan gapim yo‘q! – keskin javob qaytardi Abduqodir. – Yo‘ldan qochinglar!!!

-Sen gapimizni eshitishga majbursan, - hukm ohangida dedi Irisqul.

-Nima demoqchisiz?! – Abduqodir mashinasidan tushib oldi.

-Bizlarning ustimizdan prokurorga nega shikoyat-ariza yozding?... Sen bizlarni javobgan qildirmoqchimisan?! – Irisqul jaholatga mingan edi.
(Gʻulom Ali. Iblis qiyofasi. 2005. 121-122-b.)

Dialogik matndagi gʻazablangan tomon nutqiga ilova tarzida

«xunuk vajohatda, toʻngʻiz qarash qilib soʻz qotdi»,

«hukm ohangida dedi»,

«jaholatga mingan edi».

Dialogik matnning davomida ***«tobora gʻashlanib borardi», «Irisqul talvasaga tushgandi»*** kabi muallif izohlari orqali kommunikantning intralingvistik vositalardan foydalanganini uchratamiz va bu nutqiy aktning tarkibidagi imo-ishora va ohang orqali kommunikativ aktning mukammallashganiga, jonli va taʼsirchan boʻlganiga guvoh boʻlamiz.

Paralingvizmlarning ishlatilishi kommunikantlarning yoshi, jinsi, lavozimini, ijtimoiy holati, mavqei, oʻzaro munosabatlaridan tashqari suhbat mavzusi, fikrlarning yakdil yoki har xil boʻlishiga ham bogʻliq, masalaning axborot, bayon, hikoya koʻrinishi yoki bahs, munozaralardan iborat ekanligi, ular oʻrtasidagi ziddiyatning kuchayishi kabi omillar ham nolisoniy vositalarning qoʻllanishiga sabab boʻladi. Suhbat mavzusining doʻstona ish jarayonida, rasmiy yoki koʻcha sharoitida ekani ham kommunikativ aktning sodir boʻlishida ahamiyat kasb etadi. N.I.Formanovskaya taʼbiricha, muloqotning ramiy yoki norasmiyligi aloqa-aralashuv aktining roʻyobga chiqishida asosiy rol oʻynaydi. (Formanovskaya N.I., 29.) Hatto rasmiy muloqotda ham lisoniy vositalar neytral ahamiyat kasb etsa ham suhbatdoshlar paralingvizmlardan foydalanadilar va bu vositalar vositasida rasmiy nutq leksikasi qoʻshimcha axborot tashish uchun xizmat qiladi. Bu holat, ayniqsa, nutqiy aloqa-aralashuvni prosodik vositalar, mimik harakatlar kuzatib borganda yaqqol namoyon boʻladi.

Ayrim holatlarda «soʻzsiz dialog tabiiy va taʼsirli chiqadi».

Muallif nutqi orqali tasvirlab berilgan qahramon xatti-harakatlari nolisoniy vosita sifatida axborot berish maqsadida ishlatilgan o‘rinlarda ko‘z qarashlari, bosh, qo‘l, gavda harakatlari aloqa-aralashuv vositasi bo‘ladi:

Anvar xonni va hamkishinlarini masxaralangandek, ta’zim ado qildi. Jallod oldiga tushdi, uning orqasidan Anvar yurdi va orqadan 2 nafar qurollik yasovul ergashdilar. Anvar o‘zini o‘rdaga kirishda qanday tetik tutgan bo‘lsa, o‘lim sari chiqishda ham o‘shanday parvosiz edi. Ko‘zi tushgan tanish har kimsa bilan «xayr, xush» degan kabi imlanib olar edi. Rangi quv o‘chib, hushsiz kabi tashqi darvoza yonida turgan Sultonali bilan ham alohida vidolashdi. Anvarning harakatidagi ma’noga tushungan Sultonaling yuraqi suv bo‘lib oqdi va xushsiz, hissiz, Anvar yo‘qolguncha qarab goldi. Ushbu matnda ma’noli harakatlarni bajargan Anvar adresant sifatida bir qancha adresatlarga axborot uzatmoqda. Ayrimlari bilan fikr almashmoqda ham.

- Anvarning xon va hamnishinlarga ta’zim etishi masxaralashga teng kelmoqdi. Negaki uni jallod tomon yo‘naltirilayotganlarga «rahmat, qulluq» deb ta’zim bajo keltirishi ulardan ma’nan ustun ekanidan dalolat beradi.

- Anvarning o‘limga ketayotganida ham xuddi o‘rdaga kirayotganday tetik bo‘lishi ham kuzatuvchilar uchun axborot manbai sanaladi: bu uning vijdoni pok, chirkinlik va qabihlikdan ustun ekanini bildiradi.

- Tanish kimsalarga imo-ishoralar orqali (yuz, ko'z, bosh, qo'l harakatlari orqali) axborot uzatilib, xayrlashuv, xushlashuv amalga oshiriladi.

- Sultonlining rangi quv o'chgani, xushsiz kabi turishi uning vijdoni azoblanayotganidan, qo'rqayotganidan, yuzsizligi ayon bo'lgani haqida xabar bermoqda. Anvarning u bilan ham vidolashuvi imo-ishora orqali ro'y beradi. Ushbu kuchli dramatik holatdan Sultonlining hissiy va ruhiy holati **yuraqi suv bo'lib oqdi, hushsiz, hissiz** kabi leksemalar orqali berilgan. Anvarga ko'zdan yo'qolguncha qarab qolishida ham pushaymonlik, vijdon qiynog'i, yaxshilikni qilganga yomonlikdan azoblanish hissi ifoda etilgan.

Matndagi Anvarning holatidan va kontekstdan kelib chiqqan holdagi xatti-harakatlari uzatilayotgan axborotlar adresatlarga (xon, xon hamnishinlari, o'rdada hozir bo'lganlar, tanish-bilishlar, Sultonali) etib bormoqda.

Badiiy prozaik matnda so'zsiz replikalar salomlashuvni, xayrlashuvni minnatdorchilikni, savolni, javobni, rozilikni, tasdiqni, inkorni, ajablanishni, hayronlikni va boshqa ma'nolarni ifoda ettadi, ular ishora, mimika, gavda harakatlari, ohang orqali ifodalanib, matnda nostandart nominatsiya orqali beriladi hamda o'quvchida o'sha holatni tasavvurida tiklash orqali uning ma'no nozikliklarini aniqlab oladi.

SHu kutish asnosi eshikda hovliqib Sultonali ko'rindi. Qara barmog'i bilan xoslar ichidagi Abdurauf gunqtarni o'z tarafiga imlab, orqasiga qaytdi. Abdurauf gunqotar, ajablangan holda, dahlizga chiqib, o'zini chekkaga olib turgan Sultonliga, nima gap, degan ishorani qildi. Sultonali labini tishlab, qo'li bilan gunqotarni o'z yoniga chaqirdi. Gunqotar mahsichan oyog'ini erga bosib Sultonlining yoniga keldi. (A.Q. 214)

Paralingvizmlardan foydalanishda milliy o'ziga xoslik ham e'tiborga olinganini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Negaki aloqa-aralashuv jarayonida ishlatilgan imo-ishoralar kommunikantlar uchun tushunarsiz bo'lsa, kommunikaniv akt sodir bo'lmaydi. SHuningdek, turli madaniyat vakillari tomonidan noverbal vositalar, etiket (adab) shakllari turlicha bo'lib, ular aloqa-

aralashuv jarayonida farqlanib turadi. Birgina salomlashuv jarayonining turli xalqlarda turlicha shaklda amalga oshishini kuzatish fikrimizni tasliqlaydi.

O'zbeklarda qo'l olishish yoki o'ng qo'lni ko'krakka qo'yish va boshni xiyol o'ng tomonga egishi, ruslarda bosh kiyimini olish, o'pishish, tizzani bukib cho'kkalash, ayollarning o'ng qo'lining ust qismini o'pish, hindlarda ikki qo'l barmoqlarini juftlab jag'ga tenglashtirish, engashib oyoqqa sajda qilish, ...

Hozir garchi etiket (adab) shakllari bo'lsa-da, muayyan harakatlar axborot uzatilgani sababli aloqa-aralashuvda noverbal vosita sifatida ahamiyatli sanaladi.

-Azizjonni aytayapsizmi?

-Voy bechoraa-a! YOshgina ediya!

-Qachon?

Birinchi bo'lib qorovul tog'a o'zini bosib oldi. «Xudo rahmat qilsin», deb yuziga fотиha tortdi. (O'.Hoshimov. So'qqabosh bevagina. T., SHarq. 2008. 184-bet.)

Aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi paralingvizmlarning turli xalqlar madaniyatida turlicha bo'lishi tabiiy sanaladi. Negaki, adab qoidalari, ayrim imo-ishoralar, urf-odat va an'analar o'sha xalqning milliy qadriyati sanaladi. Garchi lisoniy aloqa-aralashuvda turli til sohiblari muayyan til birliklaridan foydalangan bo'lsalar va bu shaklda bir-birlarini tushunsalar ham, aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi noverbal vositalar ko'p tillar uchun bir xil kinetik holatni taqozo etadi.

Lekin har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan nolisoniy vositalar ham borki, ular milliy xarakterdagi noverbal vositalar jumlasiga kiradi.

Paralingvistik vositalardan foydalanish fikrni suhbatdoshga etkazishdan tashqari adresant tomonidan adresatni boshqarib ham boradi.

3.2. Diskursiv matnning pragmatik tahlili

Shaxs diskursda faol yoki nafaolligini, emotsional yoki noemotsionalligini, mushohadali yoki mushohadasizligini, yumshoq yoki serjahlliligini va boshqa jihatlarini namoyon etar ekan, muloqotning borishini nazorat qiladi, boshqaradi, suhbatdoshi o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra aloqa-aralashuvni yuzaga chiqaradi.

- *To'g'ri, dada, - Asqar o'rnidan turib. davraga murojaat qildi, - mening hech qanday da'voi dostonim yo'q. Dadam bizga ortig'i bilan yordam qilgan. Men, ukalarim, ayam, singillarim... hammamiz istagan narsamizni ebkiyib katta bo'lganmiz. Bularning hammasi dadam tufayli. Dadamning bizga, o'z oilasiga qilganini... bilmadim, Marhamatda biron boshqa oila boshlig'i qilganmikan-yo'g'mikan? Endi dadamning ayam bilan keyingi vaqtda ko'p ham chiqishmay qolgani bor gap, bu sizlarga ham sir emas. Lekin "Ayam bilan ajrashdi", deb biz uni yulishga harakat qilmasligimiz kerak, tog'a! – Asqar endi A'zam tog'asiga qarata gapirardi...*

- *Sen nimaniyam bilarding, tirrancha!... – A'zam aka bombaday portladi.*

- *Og'zingga qarab gapir, A'zam!... – Endi Muhammadjon aka [S] o'zini bosib turolmadi. – Mening bolalarimga ovozingni ko'tarma! O'chir!! – u qo'lini musht qilib shunday dag'dag'a qildiki, o'rnidan turib, og'zidan tupugi sachrab akillay boshlagan A'zam akaning tizzasigacha qaltiroq kirib, qanday bukilganini va joyiga chirib tushgan olmadek "po'killab" tushganini bilmay ham qoldi. Muhammadjon aka vajohatli nigohini yana bir muddat uni o'chib, shalvirab qolgan qaynog'asi A'zam akaga tikib turdi-da, so'ng hovuri biroz chiqqach, o'g'liga qarab, - davom et, bolam, - deya o'rniga cho'karkan, chap ko'ksini ushlab qo'ydi. (U.H.-17.b.)*

Ushbu diskurs 4 sub'ektdan iborat bo'lib, Asqar [A], A'zam aka [B], Muhammadjon aka [S] va omma [D]ni tashkil qiladi. Sub'ektlar nutqida tasdiq,

axborot uzatish, minnatdorchilik, istehzo; achchiqlanish, jahl kabi hissiyotlarning ifodasini kuzatishimiz mumkin. [D] subekt diskursda passiv rol o'ynaydi. Nutq hissiy, ruhiy holatlar bilan, imo va ishoralar va supersegment vositalar bilan kuzatib boriladi. [A] sub'ekt tomonidan muloqotda rasmiylik (hurmat, minnatdorchilik, shukrona, istehzo) hukmronlik qilgan. Nutq dadasiga, davrada o'tirgan barchaga va A'zamga qarata atalgan. [A] nutqining 1-qismi *tasdiq va uning izohini bildirib*, informatik xarakter kasb etgan bo'lsa, 2-qismi *istehzo, izoh, ozroq kinoya* tarzida ifoda etilgan. Ushbu nutq muloqot etikasi talablariga javob beradi. [A] nutqining adresati **dada, davraga murojaat qildi, tog'a** undalma va murojaat ifodasi orqali ifodalangan bo'lib, har bir adresatga atalgan nutq o'zaro ohang bilan ajratiladi.

[B] sub'ekt nutqida *jahl, achchiqlanish*ning ifodalanishiga [A] sub'ektdan yosh jihatdan katta ekanligi, uning tog'asi ekani, ko'pchilik oldida unga dashnom bergani, ushbu diskursiv aktda unga qarshi pozitsiyadagi [S]ni himoya qilgani sabab bo'lgan. Jahl ifodasi lisoniy jihatdan "**tirrancha**" so'zi orqali ifodalangan bo'lib, ushbu so'z salbiy emotsional-ekspressiv ma'no bildiradi. Gap ohangi va shaxs holati muallif remarkasi orqali berilgan.

[S] sub'ekt nutqi ham 2 ta adresatga qaratilgan bo'lib, [B] sub'ektga atalgan nutq jangovar - *dag'dag'a* ifodalab, [B] sub'ektning [A]ga qaratilgan tajovuzkorona nutqiga qarshi ifoda etiladi. Nutq ehtirosli, hissiyot bilan irod qilinib, so'zlashuv uslubiga xos. Nutqiy holat muallif remarkasi orqali tasvirlanadi. Nutqning ikkinchi qismi [A]ga qaratilgan: *da'vat, taklif* mazmunini ifodalab kelgan. Nutq adresatlarga undalmalar (A'zam - [B]), bolam - [A]), sub'ekt harakati va nigohi orqali yo'naltirilgan. Nutq ishoralar, harakatlar, imolar, supersegment vositalar va muayyan holatlar bilan kuzatib borilgan.

Keltirilgan parchada [A] va [S] adresantlar nutqi matnda o'z adresatlariga undalmalar va izohlar orqali berilgan bo'lsa-da, [B] sub'ekt nutqi, garchi [A] shaxsiga qaratilsa-da, mazmunan [S]ga yo'naltirilgani uchun u [B]ga nisbatan tajovuzkorona tahdid asosida fikr bildiradi.

Matniy parchadagi shaxslararo munosabatlarda diskursiv bloklar mazmunini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

	tasdiq	S
[A]	axborot	D
	kinoya	B
[B]	dag'dag'a	A
[S]	tahdid	B
	taklif	A

Ushbu polilogik nutqda [A] va [B], [B] va [A], [S] va [B] dialogik nutqlari faol bo'lib, o'zaro kommunikativ aktini hosil qiladi. [A] nutqi ushbu matnda berilmagan [S] nutqini tasdiqlash bilan boshlangan bo'lsa-da, kontaktiv adresat [B] ekanini uning ifodalangan fikrga reaksiyasidan bilib olish mumkin. SHu nuqtai nazardan olib qaralsa, konfliktiv muloqot [B] va [S] o'rtasida bo'lganini kuzatish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, nutqiy aktning amalga oshishida, muloqotning shakllanishida shaxs diskurs sub'ekti sifatida asosiy figura sanaladi. U nutqiy oqimni boshqaruvchi, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi yoki tugatuvchi diskursiv aktning kommunikanti hisoblanadi.

Tabiiy muloqot jarayoni kuzatilsa, diskurs kommunikant-shaxslar o'rtasidagi kommunikativ akt nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalar orqali amalga oshiriladi. Keltirilgan matnda ham kommunikantlarning muloqotida **o'rnidan turib davraga murojaat qilish diqqatni jalb etishni**, undalmaning **(tog'a)** ishlatilishi va **tog'asiga qarata gapirdi** jumlasini keltirish *nutq adresatini ko'rsatishni*, **tirrancha** undalmasi va **bombaday porladi** birikmasi *jahllanishni, achchiqlanishni, o'zini bosib turolmadi, qo'lini musht qilib shunday dag'dag'a qildiki* remarkasi *qattiq achchiqlanganlikni, tizzasiga qaltiroq kirib, shalvirab qolgan* birikmalari *qo'rquvni, mag'lubiyatni,*

vajohatli nigoh o'qrayib qarashni, chap ko'ksini ushlab qo'yish yuragining bezovta bo'lganini anglatadi.

Diskursda shaxs adresant-adresat maqomida muloqot sub'ektlari bo'larkan, ularning individualligi nutq uslublarida turlicha namoyon bo'ladi. YUqoridagi badiiy nasriy matndagi kommunikantlarning nutqiy aktda rang-barang lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanishlari badiiy uslubning erkin, ijodiy ekanligidan bo'lsa, bu hol rasmiy nutqiy muloqotda nihoyatda chegaralangan bo'ladi. Negaki kommunikant-shaxs ham diskursda rasmiy shaxs sifatida gavdalanadi.

Diskursda shaxs o'zining tabiiy nutqiy va nonutqiy muloqotga kirishishi bilan, ijodiy tafakkuri va muayyan holatni yaratishi bilan, o'zigagina xos bo'lgan temperamenti, kommunikativ aktdagi faoliyati bilan, hissiy jarayonlarni boshidan kechirishi bilan individuallik kasb etadi. Bu esa diskursni yaratuvchi, uning rang-barangligini ta'minlovchi asosiy o'zak **lisoniy sub'ekt - shaxs** ekanidan dalolat beradi.

Pragmalingvistikaning lisoniy tadqiqot maydoniga dadil chiqishining sababi ham shaxs faoliyatining kommunikant sifatida barcha qirralarini o'rganish, aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo'lgan barcha vosita, usul va uslublarni kommunikativ aktning tashkil etuvchisi sifatida tadqiq etishdan iboratdir. Kommunikativ aktda ishtirok etuvchilar - shaxslarning tiplari, ularning psixologik, sotsiologik, milliy, mantiqiy, etik, etnolingvistik, mental xususiyatlarini aniqlash va shu asnoda lisoniy shaxs tipologiyasini o'rganish ichki va tashqi lingvistikaning mushtarak holda kommunikatsiyaga xizmat qilishini anglatadi. Bu esa nuqtiiy akt, nutq uslubi, nutqiy taktika va strategiya, nutqiy situatsiya, kommunikantlar o'rtasidagi hamkorlik (hurmat, mulozamat, e'zoz; kinoya, e'tiborsizlik, mensimaslik...), noverbal va supersegment vositalar kabi masalalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Matnda muloqotning tashqi tomonidan tashqari shaxsning ichki dunyosi ham namoyon bo'ladi, uning uchun individuallikning eng chuqur jihatlarini ham ochib berishda lisoniy vositalar yordamga keladi.

Aloqa-aralashuv jarayonining o'zani (borishi) shaxsning ma'naviy, ijtimoiy, psixologik xususiyatlariga, kommunikantning so'z zahirasi miqyosiga, tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bunda asab tizimi asosiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar kommunikantlarning temperamenti muloqotning borishida etakchi omil ekanini ta'kidlab, **ekstravertlar** kirishuvchan, xushmuomala, tashabbuskor, muloqotda liderlik pozitsiyasini egallovchi bo'lsa, **intravertlar** aloqa-aralashuvda passiv, kuchsiz kontaktli sanalishini aytadilar. Ko'rinib turibdiki, psixologik jihatdan kommunikant faol va nafaol dixotomiyasi asosida farqlanadi.

Pragmalingvistik tahlil lisoniy shaxs maqomini kommunikativ aktdagi o'rni nuqtai nazaridan aniqlaydi va bunda kommunikantlarning kelib chiqishidan tortib, uning adresati bilan bog'liq biografik, kommunikativ, psixologik, sotsial jihatlariga ham bog'liq bo'ladi. Unda asosiy faktor o'zaro axborot qanday uzatilgani va adresat tomonidan uning interpretatsiyasi ahamiyatli sanaladi. SHuning uchun ham N.N.Obozov dialoglarda inson omili kommunikantlarning o'zaro munosabatlari asosida namoyon bo'lishini va muloqot munosabatlarning reallashishidan iborat ekanini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, dialogda shaxslarning kontakti umumiy mavzu va kommunikantlarning unga munosabati asosida yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra dialog mavzusi kommunikantlar tomonidan turlicha qarshi olinadi: to'la reaksiya, qisman reaksiya, formal reaksiya, nol reaksiya. Kommunikantlarning o'zaro nutqiy kontaktlari natijasida quyidagi munosabatlarni kuzatish mumkin: 1)kelishuvchanlik, tasdiq reaksiyasi – bunda har ikkala kommunikant qarashlari (antitsipasiya) to'g'ri keladi. Bu kabi dialogik nutq tasdiqlash, rozilik, kompromiss asosida ifodalanadi. So'rov va unga rozilik, taklif va uning ro'yobi, narsa va uning mavjudligi yoki mavjud emasligi kabi munosabatlar beriladi; 2) e'tiborsizlik reaksiyasi – bunda kommunikant faoliyati (fikri)ga e'tibor qaratilmaydi. Boshqacha aytganda taklifga, aytilgan fikrga e'tibor berilmaydi; 3). raqobat reaksiyasi – aytilgan fikrga boshqa fikr qarshi qo'yiladi; 4) korrekktiv reaksiya – bunda kommunikant aytilgan fikrni qabul qilmaydi balki unga

tuzatish kiritadi, qo'shimcha fikr bildiradi. 5) inkor reaksiyasi – bunda aytilgan fikr qabul qilinmaydi balki inkor etiladi.

Dialogik nutqda lisoniy shaxs ahamiyatli ekan, diskursning yuzaga chiqishida shaxsning xususiyatlari quyidagicha xarakterlanadi: 1) kognitiv jihatga shaxsning tafakkuri, bilimi, yo'nalishi, odatlari; 2) aksional jihatga individning harakatlanishi; 3) somatik jihatga individning jismoniy psixologik tomonlari; 4) pozitsion jihatga individning ijtimoiy va situativ roli yoki holati kiradi. Dialogning har bir ishtirokchisi yuqoridagi sanab o'tilgan holatga munosabatda bo'ladi.

Diskursda individlarning kontakti natijasida ularda ta'sir va aks ta'sir hosil bo'ladi. Bu suhbatdoshlarning muayyan mavzuga tafakkur prizmasi orqali yondashuvlari asosida ro'y beradi. Bu o'rinda shaxsning mavzuga munosabati va uning temperamenti asos bo'ladi. Aloqa-aralashuvda kommunikantlar o'rtasidagi aloqa turli ko'rinishda bo'lishi mumkin: emotsional-affektiv, axloqiy-etik, aqliy-reflektiv. Agar konneksiya (muloqot)da kommunikantlarning hissiy munosabatlari ifoda etilsa - ematsional, umumahloqiy normalar asosida munosabatlar ifodalansa etik, agar suhbatdoshlar umumiy hayotiy pozitsiya va shaxsiy qarashlar asosida muloqotga kirishsalar - ratsional konneksiya sanaladi.

Tilshunosda shaxs omili, ko'rinib turibdiki, dialoglarda turlicha talqin etiladi. Kommunikantlarning o'zaro yaqinligiga, mavqeiga, mansabiga, jinsiga, ijtimoiy holatiga, yoshiga, o'zaro munosabatlariga, psixologik, milliy, diniy, ilmiy qarashlariga ko'ra o'ziga xos takrorlanmas bo'ladi.

T.A.Jaligina dialogning rivoji bilan bog'liq asosiy bosqichlarda unda kommunikativ fokusning voqealanish jarayonida **diqqat-e'tibor fokusi** va **axborot fokusi** muhim sanalishini ta'kidlab, diqqat-e'tibor fokusi aloqa-aralashuvning boshlang'ich bosqichi sanalishini, muloqotning asosiy yo'nalishini, mavzusini belgilab berishini aytadi. Kommunikativ nuqtai nazardan adresant-kommunikant axborotiga teng keluvchi ushbu markaz diskursda etaklovchi rol o'ynaydi. Diqqat-e'tibor fokusi adresat uchun tanlangan muayyan mavzu bo'lib, uning diqqat e'tiborini qaratuvchi

hisoblanadi. Axborot fokusi kommunikatsiyada suhbat mavzusini konkretlashtiruvchi, unga aniqlik kirituvchi, ta'sir etuvchi bo'lib, adresatning intensiyasini yuzaga chiqish yoki chiqmasligi uchun xizmat qiladi. Diqqat-e'tibor fokusi ifoda etgan mavzu (so'rov, taklif, xabar, chaqiruv, buyruq va b.) axborot fokusida reallashadi. SHu tariqada dialogik nutq shakllanadi.

Dialogik nutqning tahlili shuni ko'rsatadiki, diqqat e'tibor fokusi va axborot fokusi ayrim hollarda noverbal vositalar bilan kuzatib boriladi, ba'zan esa kompensatsion vazifa bajaradi.

Diqqat-e'tibor va axborot fokuslarining kommunikativ aktdagi vazifasiga ko'ra noverbal komponentlarning dialogik nutqda ishlatilishi turlicha bo'ladi va ular o'zaro farqlanadi.

- *Nega joyini o'zgartiryapsiz? – so'radi tag'in YUsuf.*

- *CHunki soyda qolib ketdi. Qo'shni imoratni qarang, - Odil aka imo bilan sobiq rais bovaning qo'shqavatli, baland uyini ko'rsatdi, - zang'arning dastidan ko'p mevalar hech oftob ko'rmayapti. (U.H-38)*

Ushbu matnda diqqat-e'tibor fokusi verbal ifodalanmoqda. Axborot fokusida verbal va noverbal komponentlarning birga qo'llanishi natijasida biri ikkinchisini to'ldirib, mukammallashtirib kelmoqda. Muallif remarkasidagi **imo bilan... ko'rsatdi** jumlasini kommunikantning muayyan harakat bilan (bosh, qo'l, gavda, ko'z) ob'ekt tomon ishora qilganini bildiradi va dialogik nutqdagi noverbal komponent bo'lmasa axborot fokusi ko'zlangan axborotni kommunikantga etkazib berolmaydi.

3.3. Badiiy matnda sukutning pragmlingvistik tahlili

Sukut (yoki *jim qolish*) deb, “so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishiga»ga aytiladi. Adabiyotlarda ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda quyidagi maqsadlarda foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallanmay qolganligini ifodalashda:

- *Bu tuproq... Oqposhsho gapinitopolmay qoldi. Ketiga qayrilib qaraydi.* (T.Murod).

2. Tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalashda: -*Qap lo'ndasi.. Shvetsiya vaziri Falonchiyev janoblari aytganlariday, bu tuproq O'rusiya tojidagioliy qimmat dur, ha, dur!* (T.Murod)

3. Qahramonning ma'lum muddat o'ylanib qolganligini ifodalashda: -*O'zi... poshsho kattami, vazir kattami?* (T.Murod)

- *Bolalarim... -deydi. Oppoq soch odam labiarin ho'chchaytirio'cho'chchaytirib o'ylab qoladi. ~ Bolalarim... ~ deydi - Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. Sizlar kattatar hayotini boshdan kechiryapsiz.* (T.Murod).

Odatda, qahramonning sukuti (jim qolishi) ko'p nuqta bilan belgilanadi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ko'p nuqta bilan tugallangan hamma gaplar ham sukutga misol bo'lavermaydi. Ba'zan muallifning o'zi qahramonning jim qolishi va uning sababini bayon qiladi. Bunday vaziyatda ekspressiv effekt sezilarsiz darajaga tushadi: *Xotini nima desa "yo'q" deydigan so'fi bu safar birdaniga "yo'q" demasdan, xayolga ketdi.*

Sukut-uzoqqa cho'zilganidan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

- *Nimaga indamaysiz? Xo'p deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi*

xotinlari, bir otincha qizlari borki... (Cho'lpon).

3.4. Diskursda murojaat va uning pragmalingvistik tahlili

Murojaat ko'p yillar tilshunoslikda ikkinchi darajali masala sifatida o'rganib kelingan. Uning tadqiqi boshqa tillardagi nazariy masalalar doirasida

o'rganilib, uning tilimizdagi o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratilmagan edi. Buning natijasida o'zbek tilida murojaat shakllari, uning ishlatilishi, ijtimoiy mohiyati, individual jihatlar e'tibordan chetda qolgan. Sintaksis bilan shug'ullanuvchilar murojaatni alohida gap, gapning bo'lagi, nutqning bir bo'lagi, kommunikativ akti shakllantiruvchi vosita va boshqa nomlar bilan atab kelganlar. Morfologiya tadqiqotchilari o'rtasida murojaat so'z shakli haqida turli fikrlar bo'lmasa-da, uni alohida turkum sifatida o'rganish yoki o'rganmaslik muammo sifatida e'tiborga havola qilingan. Tadqiq etilayotgan mavzuning leksik jihatini o'rganish borasida ham turli qarashlar mavjud bo'lib, lug'aviy birlik sifatida uning maqomini aniqlash, uning semantik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda til ilmiga yangicha yondashuv bo'layotgani, tilni sistema sifatida tadqiq etilayotgani va tilning asosiy vazifasi – kommunikatsiya e'tiborga olinayotgani natijasida murojaat shakllari aloqa-aralashuvni (muloqotni) shakllantiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqilmoqda. Bu esa murojaat kommunikativ aktning yetakchi vositalaridan, kommunikatsiyani shakllantiruvchi vositalardan ekani, qolaversa, tilning faoliyatini yo'lga qo'yuvchi asosiy birlik ekanidan dalolat beradi.

Murojaat va uni o'rganish masalasi o'zbek tilshunosligida haligicha monografik o'rganish ob'yekti bo'lgani yo'q. Lekin ayrim tadqiqotlarda ushbu masala qaysidir jihatdan o'rganilgan. Filologiya fanlari doktorlari Sh.Iskandarova, S.Mo'minovlarning ilmiy tadqiqotlarida shaxs va unga murojaat, erkak va ayollarga murojaat shakllari, murojaatning etik-estetik jihatlar, shuningdek, badiiy asarlarda murojaatlar kabi yo'nalishlarda ko'rib chiqilgan.

Badiiy adabiyotni o'qitishda dialog va monologning o'ziga xos xususiyatlarini o'quvchilarga tahlil qilib berish ham darsning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Monologning dialoglashuvi, dialogning monologlashuvi hodisalari.

Monologning dialoglashuvga intilishi haqida ilk bor .P.Yakubovskiyning tadqiqotida ma'lumotlar keltirilgan. Muallif ushbu holatni yon daftardagi yozuvlar, kitob o'qilganda hoshiyaga qo'yiladigan belgilar, doklad o'qilayotgandagi shivirlash yoki biron belgi qo'yishi, yig'in raisining qo'ng'irog'i kabilar bilan izohlaydi.

A.Solovyevaning dialoglarga bag'ishlangan ishida dialogning monologlashuviga ishonarli misollar keltiriladi.

R.Gelgardning "Dialog va monolog haqida mulohazalar" degan ishida esa L.N.Tolstoyning "Urush va tinchlik", "Anna Karenina" asarlari qahramonlarining ichki dialoglari lingvopsixologik jihatdan tahlil qilinadi.

O'zbek tilida ham dialog va monologning o'zaro kelishuvini ko'rsatuvchi ko'plab holatlarni uchratish mumkin.

Ko'zda tutilgan hodisalar haqida tilshunos A.Boboyeva shunday yozadi: "...dialog va monolog nutqning ikki o'zaro bir-biriga aloqador, bir-biriga o'tib turadigan shaklidir. Monologik nutq elementlari dialogda va, aksincha, dialogik nutq elementlari monologda saqlanishi mumkin".

Darhaqiqat, dialog va monolog orasida qat'iy chegara bo'lishi mumkin emas. Monologning dialogdan asosiy farqlovchi belgisi – nutqning tinglovchiga emas, so'zlovchining o'ziga qaratilganligi ularga mutloq chegara qo'yishga asos bo'lolmaydi. Chunki monologdagi so'zlovchi nutqi o'zidan avvalgi biron narsaga (keng ma'noda) munosabat bildirish asnosidayuzaga keladi. Boshqacha aytganda, monologdagi so'zlovchi qarshisida yashirin tarzda kimdir yoli nimadir turadi.

Agar ma'ruza o'qilayotgan yoki so'zlanayotgan bo'lsa notiq, albatta, o'z nutqini tinglovchilarni hisobga olgan holda yo'naltiradi.

Demak, monologik nutq yuzaga kelishi uchun oldindan biror ta'sir bo'lishi shart.

Quyidagi misolga e'tibor beraylik:

-Bir borganman, uyiga ketdik-e! Biz ham umrimizda biror marta ko'nglimiz buyurgan ishni qilaylik!

-“Rost aytadi, - deya armon bilan dilidan o'tkazdi Sulton, - umr bo'yi o'zgalarning ko'ngliga qarab keldim. O'zimning ko'nglimga qarashga zarracha fursatim bo'lmadi. Mana endi fursatim yetdi deganimda!”(X.Saloh).

Ushbu dialogda keyingi suhbatdoshning ichki nutqi monolog shaklini oldi. Bir tomondan, bu ichki nutq “xo'p, ko'nglimiz buyurgan ishni qilamiz” mazmunida avvalgi replikaga javob replica bo'lsa, ikkinchi tomondan, endi qahramon dilidan boshqa tuyg'ular ham o'ta boshladi. U o'z hayoti davomida u qadar xursandchilik - shodlik bilmaganini, hayot mashaqqatlari ichida bunga vaqt topa olmaganini o'ylab o'ziga o'zining rahmi keladi. Chunki qahramonning “*Mana endi fursatim yetdi deganimda!*” jumlasini asar mazmunidan kelib chiqib izohlansa, u hayotda o'z o'rnini topib, o'zi xohlagandek yashamoqchi bo'lganida bedavo dardga yo'liqqanidan voqif bo'lishi uning yuqoridagi jumlaning aytishiga sabab bo'ldi. Ya'ni ichki monolog so'zlovchining hissiyotlari orqali yuzaga keldi.

Yana bir misol sifatida E.A'zamovning “Kimlarga eshik ochasan” hikoyasidagi qahramonning o'zi-o'zi bilan qilgan savol-javobiga e'tibor beraylik:

-Hozir yotoq joyingga borgach, nima qilmoqchisan?

-Yolg'iz qolmoqchiman! Xonamga kiraman-da, eshikni ichidan qulflab, hech kimni qo'ymayman!

-Bundan maqsad?

-Och o'tirish!

-Qachongacha?

-Stipendiyagacha.

-Eh-he, unga qadar ochlikdan...

-Mayli!

-Mabodo senga beg'araz yordam ko'rsatmoqchi bo'lsa, kimlarga eshik ocharding?

-Butun olamga!

-Butun olam kirsa... Toshqul bilan Rajab ham kiradi-da?

-Yo 'q ularni kiritmayman!

-Yana kimlarni?

-Buni o'ylab ko'rish kerak.

Keltirilgan misol dialog ko'rinishida. Lekin bu dialog bir kishi tomonidan yuzaga chiqyapti. Dialog bo'lishi uchun esa kamida ikki kishi ishtirok etishi kerak. Unda berilgan misolni qanday baholash kerak?

Agar yuqoridagiga o'xshab monologning dialoglashuvi desak, monologni xarakterlovchi uzundan-uzoq jumlarlar yo'q. Aslida berilgan misol qahramonning o'ziga-o'zi aytgan o'z qarashlari, e'tiqodlari haqidagi monologidir. Bunda, yuqorida aytib o'tilganidek, monologda ham kimdir yoki nimadir bo'lishi ochiq holda yuzaga chiqyapti. Shu sabab bu nutq shaklan dialogga o'xshab qolgan va yaqinlashgan.

Dialogik nutqda kommunikantlar aloqa-aralashuvni yuzaga chiqarishda o'zaro murojaat shakllaridan foydalanadilarki, bu adresant nutqining adresatini topishda yordamchi vosita sifatida e'tiborga loyiq bo'ladi. Monologik nutqda ham nutqning adresati mavjud bo'ladi. Bu esa matnda o'z ifodosini topadi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan keltirilgan monologda, garchi murojaat shakli berilmagan bo'lsa-da, ayonki, Miryoqubning nutqi Miryoqubga qaratilgan. Matn oldidan "Ey Miryoqub" degan murojaat keltirilishi ham mumkin. Lekin ushbu matnni o'qigan kitobxon murojaat shakli bo'lmasa-da, nutqning (monologning) Miryoqubga qaratilganini anglab oladi.

"Bilmadim, bu poyezd meni qayerga olib boradi? Qrimga deb yo'lga chiqdim. Biletlar Moskvagacha. U yerda nima bo'ladi? Ungacha nima bo'ladi? Bilmayman. Bilmayman. Nima uchun bu uchun bu safarga chiqqanimni ham bilmayman... Qishloqqa jo'naganimda to'rt-besh kun turarman deb o'ylagan edim. Bir kecha yotdim, xolos. Sahar turib, haligi bo'ynimga osilgan ilonni chiqarib tashlagach, ichkariga kirdim. Xotinim ichkarini supurayotgan edi. Ko'ziga qaradim, tuni bo'yi uxlamagani ko'rinadi. Men ham tun bo'yi uxlayolmaychiqdim... Ilon kirgan edi qo'ynimga! Ilonni o'pgan harom lablarim bilan uxlab yotgan bolalarimni o'pay deb quyiga egildim, ko'nglim chidamadi.

Ko'rpaning qirg'og'ini o'pdim. Xotinim ko'rib turgan edi. "Bu bizdan kechib ketayotganga o'xshaydi. Hatto o'z bolalarini ham o'pgisi kelmaydi", deb o'ylagandir, to'lib-toshib yig'lagandir. Bechora xotin, bilmaydiki, bolalarimni o'pmasligim ularni sevganligimdan edi".

Bu haqda tilshunos N.Maxmudov shunday deydi: "...monolog, shubhasiz, dialogdan kelib chiqqan, monolog dialogning alohida bir ko'rinishi" dir.

Keyingi misolni ichki dialog yoki monologning dialoglashuvi deb emas, dialog tarzidagi monolog yoki dialogik monolog deb nomlash mumkin. Bu misol dialog va monologning o'zaro bir-biriga ta'sirini, biri ichida boshqasi bo'la olishini, o'zaro kelishuvini ko'rsatib turibdi.

Yana bir misol:

-Rostgo'ylik ham evi bilan-da...

-Nima, sal oshirib yubordimmi? – deb talmovsiradi G'aybarov.

-Rost gap odobga zid kelmasligi kerak.

-Alvido, hur fikr, asov g'alayon! – deya xitob etdi G'aybarov, qo'llarini namoyishkorona yozib. –Rost gapni doim ta'qib qilishgan. Uni deb odamlarni o'ldirishgan, yoqishgan, tiriklayin terisini shilib olishgan... Qur'on, Tavrot, Injil, Talmut va sanoqsiz vedalar! Shariat va inkvizitsiya, ming xil tarix!... Hur fikrga omonlik bormi o'zi? (M. Do'st).

Bu misoldagi G'aybarov va Zamiraning suhbatida G'aybarovning ikkinchi nutqi endi oddiygina replica emas, monologik nutqning ko'rinishidir. G'aybarovning bu nutqidagi barcha jumalari o'zidan avvalga turtki bergan replikaga "rost gapni doimo ta'qib qilishgan" mazmuniga teng reaksiyadir. Bu reaksiyadan so'ng suhbat yana davom etadi. Demak, dialogning bir replikasi monologlashib, so'ngra dialog yana o'z yo'lida ketishi mumkin. *"Hayot qanchalar shirin! Uni tashlab ketishga odamning qanday ko'zi qiyarkin? Siz qanday tashlab ketdingiz uni, Nozim aka?! Eh, hali sizga aytadigan gaplarim ko'p edi!... Eh, hayot, bevafo, bebaho hayot, iztirobing ham shunchalar*

lazzatliki, seni qanday tashlab ketib bo'ladi? Siz qanday tashlab ketdingiz, Nozim aka? O'zing-chi, o'zing, endi qanday tashlab ketasan uni?" (X.Saloh).

Keltirilgan misolda so'zlovchi hayot, inson umri haqida o'ylay turib, dilida ardoqlab yurgan kishilarning biridan ayrilganini his etadi va bundan ko'ngli cho'kib, "Siz qanday tashlab ketdingiz uni, Nozim aka?" – so'roq jumlasini qo'llaydi. Insonning umrini tashlab ketish-ketmasligi o'z izmida emasligi barchaga ma'lum. Shunga qaramay, yuqoridagi jumlaning voqealanishi so'zlovchining ichki hissiy holati bilan ham bo'g'liq. Bu va keyingi jumladan ma'lumki, so'zlovchi o'z ichki nutqida o'z-o'ziga, qolaversa, "Nozim aka"ga savol beryapti. Ya'ni, monolog chegarasidan o'tab, dialog belgilarini ham o'zida namoyon etyapti. Bir so'z bilan ifodalaganda, bir vaqtning o'zida monolog ichida dialog ham voqealanayapti.

Bu va bunga o'xshash hodisalarni og'zaki va yozma nutqda ko'plab uchratish mumkin. Keltirilgan misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, dialog va monolog birdek nutqqa qarashli bo'lgan hodisa. Ular o'z sintaktik-stilistik, kompozitsion tuzilishiga ko'ra farqlansa-da, qat'iy chegara bilan ajralmaydi.

Aksariyat, so'zlovchining ichki hissiy holati bilan bog'liq ravishda dialog monolog chegarasiga o'tishi yoki monolog o'z chegarasidan chiqib, dialoglashishi mumkin.

Muloqot xulqi hududiy jihatdan xoslanadi. Taraqqiyotning bugungi bosqichida hamma sohalarda "inson omili"ga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Bu dunyoda bo'layotgani kabi O'zbekistonda ham bu ijtimoiy jurayon barcha jabhalarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Jahon tilshunosligida til va undan foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqadorlik (lingvopragmatika)ga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham ortdi. Natijada tilni quyidagi uch birlik asosida tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi:



Insonning jonli nutqini bunday aspektda o'rganish jarayonida etnolingvistika va uning zaminida hosil bo'lgan lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) kabi soha va yo'nalishlar yuzaga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lishiga qaramay, o'z navbatida uning ham yangi tarmoqlari: frazeologik lingvomadaniyatshunoslik, kotseptologik, leksikografik, lingvodidaktik lingvomadaniyatshunoslik kabilar paydo bo'ldi. Bularning hammasi insonning jonli, amaldagi nutqini o'rganishga qaratilgan.

Dunyo xalqlari o'rtasida turli sohalarda o'zaro hamkorlik aloqalari tobora kengayib borayotganligining o'zi ham tilshunoslikning bu kabi yangi soha va yo'nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har bir millat va elatlarning o'ziga xos, hech kimnikiga o'xshamaydigan muloqot me'yorlari mavjudki, ularni bilmay turib turli mamlakat xalqlari o'zaro muloqotga kirisha olmaydilar. Aynan shuning uchun ham chet tillarini yoki bir tilda so'zlashuvchi turli hududlarda yashovchi kishilar muloqot xulqini o'rganishda ularning o'ziga xos tomonlarini bilishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Tilshunoslarning ta'kidlashiga qaraganda, o'zbek dialektologiyasida dialektning maxsus konsepsiyasi ishlab chiqilmagan. Sheva, dialekt, lahja atamalari rus dialektologiyasidagi govor, dialekt, narechiye atamalari ta'sirida yaratilgan.

“Sheva, - deya ta'rif beradi akademik Sh.SHoabdurahmonov, - biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi: l a h j a – shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi. D i a l e k t termini dialektologik adabiyotlarda ko'pincha lahja ma'nosida, ba'zan sheva ma'nosida ham qo'llanadi. Keyingi vaqtlarda o'zbek dialektologiyasida dialect termini sheva ma'nosida ham, lahja (shevalar yig'indisi) ma'nosida ham uchraydi”.

Asosiy vazifalar qiyoslanganda ma'lum bo'ladiki, sotsiolingvist ko'p jihatdan o'zini dialektologlarning merosxo'ri deb hisoblashi mumkin. Dialektni

o'rganish jamiyatning boshqa a'zolaridan o'z tillari jihatidan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlar nutqiy odatlarini o'rganishga qaratilganligi uchun ko'pchilik sotsiolingvistlar o'z sohalarini dialektologiya bilan chanbarchas bo'g'liq holda tasavvur etadilar. Biroq o'zining asosiy qiziqishi nuqtayi nazaridan dialektologiya zamonaviy sotsiolingvistikadan keskin farqlanadi.

Dialektologiya va sotsiolingvistika yana bir o'rinda – tahlil ob'yekting dastlabki birligini tanlashda bir-biridan farq qiladi. Dialektologiya til dialektlarni yaxlit tizilmalar sifatida talqin qiladi. Bu tizilmalar o'rtasida aslida aniq ko'zga tashlanadigan ajratuvchi chiziqlar bo'lishi kerak: izoglosslar, ya'ni lingvistik xaritada til xususiyatlari bir xil bo'lgan aholi punktlarini birlashtiruvchi chiziqlar mazkur talqinga aniq qaram bo'ladi.

Sotsiolingvistika esa, diqqat-e'tiborni ijtimoiy guruhlar va ular tomonidan foydalaniladigan tilning o'zgaruvchan birliklariga qaratishga, bu o'zgaruvchan birliklarni ijtimoiy fanlarning: yosh, jins, ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sinfga tegishlik, hududiy katta guruh, maqom va shu kabi an'anaviy demografik birliklar bilan bog'lashga urinadi. Shuningdek, keyingi paytlarda til formalari va ijtimoiy funksiyalar o'rtasidagi munosabatlarni mikro (tor) darajada , ya'ni guruh ichidagi interaksiyada, til va ijtimoiy kattaroq masshtabdagi funksiyalarni kattaroq macro darajada , ya'ni guruhlar o'rtasidagi interaksiyada belgilashga urinishlar ham bo'lmoqda.

Tilshunos A.Jo'rayev o'zbek shevalarini areal nuqtayi nazardan o'n bir zonaga ajratadi va bu zonalar bo'yicha tadqiqot o'tkazgan qirqaqa yaqin dialektologning ishlarini alohida hurmat bilan tilga oladi. Shu bilan bir qatorda dialektologiya sohasida yo'l qo'yib kelingan kamchilik va nuqsonlar, jumladan, faktlar yig'ishga ortiqcha berilib ketish oqibatida yuz bergan nazariyasizlik uzoq davom etganligini achininsh bilan qayd etadi.

Umuman, o'zbek dialektologlari uzoq vaqt “qancha ko'p dialektologik fakt yig'sak, shuncha yaxshi” shiori ostida ish ko'rib keldilar. Ularning qonuniy merosxo'rlari bo'lgan sotsiolingvistlarning asosiy vazifasi esa yig'ilgan boy materiallarga va sinxron kuzatishlarga tayangan holda har biri o'ziga xos olam

bo'lgan insonlar muloqot xulqini, demakki, insonning o'zligini chuqur va atroflicha tadqiq etishdan iboratdir.

Yaponiyalik tilshunos olim Nisio Minoru talaffuz ham hudud bilan bog'liq holda o'ziga xoslikka ega bo'lishligi haqida qiziq hayotiy misol keltiradi. Unda hatto qushlarning ham o'z shevalari borligi haqida fikr yuritiladi.

Ekologiya va ijtimoiy muhitning inson muloqot xulqiga bevosita ta'sir etishligi yoki boshqacharoq qilib aytganda, muloqot xulqi ekologiya va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi haqida gap ketganda kishilarning yashash, o'qish. Ishlash joylarining o'zgarib turishini, turli dialect vakillari o'rtasida bo'ladigan nikohlarni, ularning ota-onalari qaysi sheva vakili ekanliklarini inobatga olishga to'g'ri keladi. Chunki bunday o'zgarishlar kishilar nutqi, muloqot xulqiga, albatta, ta'sir etadi. Bularni hisobga olmaslik esa turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu haqda A.Jo'rayev bir necha misollar keltiradi:

“1-misol. Er (B.) va xotin (L.) lar Toshkentning Eski shahar qismida yashashadi, shu shaharda katta bo'lishgan. Ularning N. ismli qizlarini Toshkent shevasi vakilasi deb hisoblash mumkin. **Ammo u o'z onosiga toshkentliklar shevasiga ko'ra “opa” deb emas, balki “ona” deb murojaat etadi.** Ma'lum bo'lishicha, L. asli buxorolik bo'lgan onasiga shunday deb murojaat etgan va qiziga ham menga shunday murojaat qilgin, deb o'rgatgan.

2-misol. A. Toshkentda tug'ilib katta bo'lgan. Toshkentdagi oly o'quv yurtlaridan birida o'qib yurgan paytida Buxorodan o'qish uchun kelgan S. bilan tanishib, unga turmushga chiqadi va Buxoroga kelin bo'lib boradi. Kuzatishlarimiz jarayonida kichik yoshli bolalari unga **“nana”** deb murojaat etishlarining guvohi bo'ldik. (Buxoroda kichik yoshdagi bolalar onalarga **“nana”** deb murojaat etishadi, katta bo'lganlaridan keyin **“ona”** deyishadi). A. buning sababini bolalariga qaragan S. ning onasi ularga shunday deb murojaat etishga o'tganligi bilan izohlaydi”.

Ko'rinadiki, ijtimoiy muhit, ayniqsa, bolalikdagi ijtimoiy muhit, nutqda, murojaat shakllarida o'zining aniq ta'sirini ko'rsatadi.

Qo'llanilish shart-sharoiti bilan bog'liq holda, murojaat shakllari tanish kishilarga murojaat qilish va notanish kishilarga murojaat qilish kabi guruhlariga bo'linadi. Har bir murojaat shakllarida adresant va adresatlar o'rtasidagi qarindoshlik darajalari hisobga olinadi. Tanishlik darajasiga ko'ra: qarindoshlar, do'ltlar, er-xotinlar..., birinchi, ikkinchi darajali tanishlar va notanish kishilar o'rtasidagi murojaatlar farqlanadi.

Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlarda kelinlar o'zlari kelin bo'lib tushgunga qadar tug'ilgan qaynog'a, qaynsingillarining ismlarini aytib chaqirishlari uyat sanaladi. Ism o'rnida **“sher bola”**, **“toy bola”**, **“qizcha”**, **“o'g'ilcha”** kabi so'zlarni qo'llaydilar.

Notanish kishilar bilan bo'ladigan muloqot ancha rasmiy va qisqaligi bilan ajralib turadi. Zotan, notanish kishilarga qilinadigan murojaat tanish kishilarga qilinadigan murojaatdan anchagina farqlanadi.

Badiiy matnda aloqa-aralashuvning noverbal vositalari ifodasi (tasviri) asosan hikoya tarzidagi nasriy asarlarda uchraydi. Nasriy asar matnida o'zaro aloqador bo'lgan, navbatma-navbat keluvchi va biri ikkinchisini to'ldiruvchi, izohlovchi ikki nutq: muallif nutqi va personaj nutqi bo'ladi. Bu ikki nutq ko'rinishi matn tarkibida bir butun holatda namoyon bo'ladi va mana shu xususiyat nasriy asarlarni boshqa badiiy turlardan farqlaydi (masalan dramatik asarlardan).

Badiiy nasriy matnda personajlarning nutqiy-ishoraviy holati haqidagi ma'lumotlar ikki xil: ifodalash va tasvirlash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ifodalashda noverbal ifoda verballashgan ko'rinishda namoyon bo'ladi. Tasvirlashda esa ham verbal, ham noverbal holat analitik tasvirlash asosida beriladi. Bunda noverbal vosita bilan verbal vosita o'zaro bog'liqlikda va birgalikda keladi. Shuningdek, nutq jarayoni holat, nutq va harakat bilan umumiy tarzda tahlil etiladi. Ifodalash asosan dialoglardagi replikalarda berilsa, tasvirlash muallif remarkalarida ifodalanadi. Bunda muloqot davridagi xatti-harakat (imo-ishora va boshqalar) ishora fe'llari yoki ishorani tasvirlash yordamida muallif izohi tarzida beriladi. Tasvirlash muallif nutqi bilan personaj

nutqi o'rtasidagi oraliq pozitsiyada bo'lib, har ikkisi bilan aloqada bo'lsa-da, ko'proq personaj nutqi tomonga aloqador hisoblanadi.

G'aybarov gardanini qashib, -tan olaman, - dedi, - bu savol men uchun juda achchiq doridan ham battar (M.M.Do'st)

Badiiy nasriy matnda personajlar nutqiy-ishoraviy holatini ifodalash va tasvirlash ko'rinishlari shuni ko'rsatadiki, har ikki shakl matniy jihatdan ko'p shakl va xususiyatlarning birligi bo'lib keladi va ular nutqiy aktning ham ko'rinishi, ham vositasi bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'ladi.

Ifodalash hajm jihatidan chegaralangan bo'lib, muallif nutqi matni tarkibida bo'ladi, personaj nutqini muallif nuqtai nazari asosida to'liq bo'lmagan va aniq bo'lmagan holda qayta ifodalanadi.

Shunga ko'ra, nutqiy va nutqiy bo'lmagan aloqa vositalarining personaj nutqida ishlatilishi va uning ifodalash va tasvirlash ko'rinishlarida berilishi, ishlatilish mexanizmlari nasriy matndagi personajlar nutqiy-ishoraviy harakati haqidagi akti ma'lum qiladi. Bu holat badiiy matnning kompozitsion-lisoniy qurilishida alohida ahamiyatga molik bo'ladi. V.V. Vinogradov: "Badiiy prozaning kompozitsion-lisoniy va obrazlar strukturasi tarkibida har bir badiiy obraz (shaxs, narsa, holat, sharoit, detal...) o'z o'rniga va vazifasiga ega " ekanini ta'kidlab o'tadi.

Personaj nutqi (dialog, dialogik nutq) masalasi, dialogik nutq va unga hamroh bo'luvchi, ko'rsatib boruvchi ishoralar, mimik, plastik harakatlar dialogda xarakterlovchi tadqiqot ob'yekti sanaladi. Nutqning aralash shakllari deganda, nutqiy va nonutqiy vositalarning personaj nutqi va muallif nutqida assimilyativ holda berilishi nazarda tutilgan.

Tasvirlash orqali muallif qarashlari nafaqat verbal, balki noverbal vositalar orqali ham maqsadli va aniq bo'ladi. Chunki unda zaruriy izohlarni berish, ayrim holatlarni alohida ta'kidlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Badiiy nasriy matnda nutqiy-ishoraviy holat gapning turli strukturasi ko'rinishlarida uchraydi va ma'lum lisoniy ifoda, o'ziga xos til vositalari orqali ifodalanadi. Bu holat ko'chirma va o'zlashtirma gap konstruksiyalarida, dialogik

matnda, muallif gapida, replikalarda, remarkalarda, muallif gapi va ko'chirma gapning aralashma konstruksiyalarida namoyon bo'ladi.

Badiiy nasriy asarlar bo'yicha to'plangan misollar tahlili muloqotda nutqiy-ishoraviy holat ifodasi asarning badiiy qiymatini oshirishini, personajlar harakteriga qimmatli chizgilar berishni, asar voqealari tasvirida reallik ifodalashini, shuningdek, matnning kompozitsion-lisoniy ko'rinishida semantika, sintaktika va pragmatika asosiy ekanini namoyon etib beradi.

Qizning ro'parasida zalga qo'yilgan tuvakdagi gulning barglarini o'ynab(e'tiborni jalb etish), qizga tikila boshladim (yaxshi ko'rganini bildirish).Qizning daydi boqishlari (e'tiborsizlik) menga tushgan edi (e'tibor bermoq), men ham odamlarga shipshitmay turib (pinxona ravishda), chap ko'zimni hazillik bilan qisib qo'ydim (e'tiborni jalb etish, xazillashish). Qiz menga bir xo'mrayib qaradi-da (norozilik, achchiqlanish) yuzini shartta teskariga burdi (e'tibor bermaslik, achchig'i kelganlik).Men bu choq uning holini ta'qib qilar edim (kuzatuv)...(G'.G'.)

G'afur G'ulomning "Yigit" hikoyasidan keltirilgan ushbu matnda kommunikantlarning nutqiy muloqoti aks etmagan bo'lsa-da, suhbatdoshlar o'zaro ancha "fikr almashib" olganlarini kuzatish mumkin va nutqiy-ishoraviy holat muallif nutqi orqali amalgam oshirilganining, unda mos ravishdagi fe'llar ishtirok etganining va bu fe'llar harakat fe'llari esa-da, munosabat ifodalaganining guvohi bo'lamiz.

Badiiy asar yaxlit matn ekan, uni lisoniy-kompozitsion jihatdan o'rganmasdan turib asar mohiyatini tushunish mumkin emas. Bu borada badiiy nasriy matnning lisoniy tahlili, ayniqsa, dialoglarni, ularni shakllantiruvchi monologik nutqni, muloqotning amalgam oshishida ishlatiladigan ishoralar, imolar, ta'sirli harakatlar va personajlarning xarakterini ochishda ishlatiladigan tashqi xatti-harakatlarni o'rganish zarurdir.

Nutqiy-ishoraviy holatning verbal ifodasi asosan dialoglardagi replikalarda ifodalanadi. Ular personajlar nutqiy-ishoraviy holatining analitik ifodasi bo'lmish remarkalar bilan birga qo'llanib keladi.

Otasi va onasi uning besaramjonligini sezishdi: ularning samimiy mexribonligi va tinimsiz savollari: Senga nima bo'ldi, Matluba? Kasal emasmisan, Matluba?- uning yuragini ezib yubordi.

Bu o'rinda badiiy nasriy matn strukturasigabadiiy obrazni shakllantirish maqsadida kiritilgan og'zaki nutq asarning lisoniy-kompozitsion jihatdan bir butun yaxlit holga kelishiga sabab bo'ladi. Bu kabi kiritma nutq muallif nutqi tarkibida bo'lib, go'yoki uning tarkibiy qismi sanaladi.

Badiiy nasriy matnda muallif nutqida personajning aytilmagan nutqi, o'y va hayoli – **ichki nutqi** ham ko'rsatiladi.

“Nahotki bilib qoldi?”-qo'rqinch bilan o'yladi Nodir, uning yuziga qon yugurganini sezdi, lekin Dildora uni boshqalardan farqlamasdan, o'sha zahoti yuz o'girdi.”(S. Rajabov).

Ichki nutq kommunikativ akt uchun mo'ljallangan bo'ladi. Lekin u o'z ifodasini adresantda namoyon etadi. Ichki nutq noverbal vositalar bilan kuzatib boriladi yoki ichki nutq ifodasidan so'ng emotsional, ishoraviy, mimik vositalar namoyon bo'ladi.

Izvoshchilar, do'kondorlar, rahbarlar to'xtab, qiziqish bilan asira qizga qaradilar; ba'zilar boshlarini tebratib o'yladilar: “Mana nimalarga olib boradi ahmoqona odam” (M. Ismoilov).

Ushbu matnda asira qizga qaraganlarning bosh tebratishlari achinish, afsuslanish, xulosa qilish ma'nosini bildirib keladi va ichki nutq ishoraviy xarakterni ifoda etadi.

Matn tarkibida personajning ichki nutqi qo'llanganda, nutqiy-ishoraviy holatning shakli va uning lisoniy ifodasi muallif nutqi tarkibida parallel holda namoyon bo'ladi.

Yo'q! Yo'q! Mana ko'rasan, meni haydab chiqargan bu uy uning o'ziga ham nasib etmaydi. Vali polvon tishlarini g'ijirlatdi, o'zining kallasida qo'rqinchli rejalar paydo bo'ldi (S. Siyoyev).

Ichki nutq keng ma'noda ishoralarga yaqin bo'ladi. Chunki ichki nutq ifodasi kishining ichki holatini – hissiyotini bildiradi, uning izi kishining

imo-ishoralarida, harakatlarida namoyon bo'ladi. Zero, imo-ishoralar verbal vositani to'la kompensatsiya qilganda ham verbal vositaning izi – artikulyatsiyasi seziladi.

Ko'p hollarda ichki nutq imo-ishoraning "tarjimasi" sifatida beriladiki, u ma'no ifodalovchi hissiy holatni bildirib keladi.

*Alisherga g'olibona tarzda dadil va mag'ub tikilib turardi:
"Uyimni qancha istasang ham hech narsa topa olmaysan".*

Bizga ma'lumki, tashqi nutqni ham noverbal vositalar kuzatib borishi mumkin va unda muloqotning ichki ko'rinishi sinxron tarzda kommunikativ aktda biri ikkinchisini to'ldirish, ta'kidlashi, ifodalashi, ma'noni kuchaytirishi mumkin. Lekin ayrim hollarda tashqi va ichki nutqning birin-ketin kelishi va mazmunan biri ikkinchisini inkor etishi, shuningdek, o'zaro qarama-qarshi fikr ifodalash hollari kuzatiladi. Bunday hollarda matnda tashqi nutq bilan noverbal vositaning nomutanosibligi, personajning tili va dilining qarama-qarshiligi ifoda etiladi.

- Men ham jang maydoniga borarmikinman? – dedi Nodirshoh bir daqiqalik sukutdan so'ng va "dushmanlar tuzoq qo'yib turishibdi-ku, sharmandalarcha o'ldirishadi", - deb o'yladi va qilich ushlagan qo'llari qaltirab otning tizginini bo'shatdi (M.Osim).

Shunday holat ham kuzatilishi mumkinki, tashqi nutq va unga mos ravishdagi harakatga ichki hissiyot, ruhiy holat va ichki nutq mos tushmaydi.

"Hech narsa bo'lmaydi, Sizlarni ishontirib aytaman", - dedi matros va furajkasini boshiga kiyib, katta-katta qadam tashlab: "Hozir portlab ketsa, cho'kib ketamiz", - o'yladi. O'zlarini dadil tutishga harakat qilayotgan ikki yigitning ham qo'llari qaltirab, rangi dokaday oppoq bo'lib ketgan edi (O'.Hakimali).

Personajlarning ichki nutqining ishoraviy ifodasi natijasida ichki nutq ishora-dialog hosil qiladi. "Nigohlar dialogi", "Ko'zlar bilan so'zlamog'" kabi nonutqiy muloqot yuzaga chiqadi.

Shabnam yigitga tikilgancha, Oллоhga iltijo qilib ichida takrorladi: "Sizni kim bu ahvolga soldi. Endi nima bo'ladi?"

"Baribir seni sevaman, sensiz hayot men uchun o'lim bilan teng", - hayolidan o'tkazdi yigit qonga belangan boshini ko'tarib, qiz tomon intilgancha.

Ichki nutqning noverbal vosita asosida "verballashuvi" va muloqotning amalga oshishida qo'llanadigan xarakterizatorlar (kulgi, yig'I, seskanish...) aloqa-aralashuvda faol ishlatiluvchi barcha uchun tushunarli bo'lgan emotsional, simvolik, ko'rsatuvchi, tasvirlovchi ishoralar sifatida namoyon bo'ladi.

Gulbadan onasi Mohim begimga savol nazari bilan qaradi. Mohim "Ha, ayt!" deganday bosh irg'adi(P.Q.)

Ushbu kommunikativ aktda muloqotning shakllanishida adresant va adresantning ko'z va bosh harakatlari aloqa-aralashuvni yuzaga chiqarmoqda va har ikkala kommunikant suhbatdan qoniqish hosil qilganining guvohi bo'lamiz.

Badiiy nasriy matnda personajlarning nutqiy-ishoraviy holatining ifodasi **illyustrativ-umumlashgan** ko'rinishda berilishi kuzatiladi. Bunda muallif nutqi bilan personaj nutqi muallif nutqi uchun isbotlovchi, izohlovchi vazifa bajaradi. Boshqacha aytganda, personaj nutqi illyustrativ-aniqlovchilik vazifasini bajarib, shu personaj uchun o'ziga xos bo'lgan holatni ifoda etadi.

Sherzod Hilolani ko'rgandayoq qizarib, o'zini qayerga qo'yishini bilmasdan qolar, gapirganda duduqlanib fikrini to'la yetkazib bera olmas edi. Hozir ham "Yaxshimisizlar, ertaga qayerda...qayerga borasizlar" – dedi. Uning ovozi baland-past bo'lib chiqar, o'ziga bo'ysunmas, qo'li bilan ko'ylagi tugmasini tinmay o'ynar edi (A.Muxtor).

Nutqiy-ishoraviy holat **nutq ichida nutq** ko'rinishidagi badiiy nasriy matnda ham kelishi mumkin. Bu kabi konstruksiyalar, asosan, himoya qilish, so'zlab berish shaklidagi matnlarda uchraydi va ishoraviy holat personaj nutqi tarkibidagi muallif nutqida keladi.

Biz uygacha yetib keldik. Zumradning rangi oqarib yerga o'tirib oldi va "men kirmayman, uning ko'ziga ham qaramayman", - deb ho'ngrab

yig'lab yubordi. Men esa "Uni bir marta kechir. Axir o'z opang-ku!" dedim yalinish ohangida uni o'rnidan turgazar ekanman ("Xolis" gazetasidan).

Badiiy prozaik matndagi nutqiy-ishoraviy holatni ifoda etuvchi replikalar hajmi jihatidan turlicha bo'lib, bir so'zdan iborat

bo'lishi yoki bir necha sahifani o'z ichiga olishi mumkin. Katta hajmdagi replikalar monolog sifatida beriladi. Replikalarning hajmiga qarab ularning matn strukturasidagi o'rni belgilanadi, ya'ni nutqiy-ishoraviy axborotni ifodalovchi remarkalarning matndagi joylashishi aniqlanadi. Agar replika hajmi katta bo'lsa, muallif remarkasi o'rtasida joylashadi. Replikaning joylashuvi remarkaning hajmiga ham bog'liq; muallif remarkasi katta hajmda bo'lgan holda kam hollarda propozitsiya, ya'ni interpozitsiyada ishlatiladi, ular asosan postpozitsiyani egallaydi. Replikaning ham, remarkaning ham katta hajmda kelishi uslubning talabiga ko'ra normal hol sanaladi va juda keng qo'llanadi.

Demak, matn tarkibidagi nutqiy-ishoraviy holatni ifoda etuvchi replikalarning va muallif remarkalarining hajmi ularning joylashuv o'rinlarini belgilashda asosiy omillardan sanaladi.

Personajlarning nutqiy-ishoraviy holatini tavsiflash usuli muallif remarkalarida, o'zlashtirma gaplarda, personaj ifodalarida beriladi. Personajlar nutqiy-ishoraviy holatining tasvir (analitik) asosida berilishi deganda, matnda muloqotning imo-ishoraviy shaklining ko'rinishi emas, balki hosil qilingan ifodasi, muallif remarkasidagi tasviri asos qilib olinadi.

Tasvir personajning nutqiy-ishoraviy holati haqidagi axborotni badiiy nasriy matnda berilish usuli bo'lib, matnning kompozitsion-lisoniy va badiiy strukturasini belgilab beradi. Tasvir asosida badiiy nasriy asardagi personajlarning nutqiy-ishoraviy holati to'la ravishda verbal va noverbal shaklda o'z ifodasini topadi. U personajning nutqiy va nonutqiy aloqa usullarini o'zaro aloqadorlikda muallif bahosi asosida maqsadli ravishda ifoda etadi.

Tasvir muallif nutqi bilan personaj nutqi o'rtasidagi bir vaqtning o'zida ikki tomonlama aloqani ko'rsatib beradi. Bu ikki tomonlama aloqa tasvirning

turli xil shakllarda bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, uning semantikasini, strukturasini va vazifalarini belgilab beradi.

Tasvir, garchi muallif nutqi bilan personaj nutqining o'rtasida tur sa-da va nutqiy-ishoraviy material replikalar orqali ifodalansa-da, ular personaj nutqiga qarashli bo'ladi.

Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hatto nuqsonlari ham muloqot jarayoninig mahsulidir. Har qanday muloqotning eng soda vazifasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salim-alik, suhbatdoshni ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. Bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega. Yana bir muhim vazifasi ijtimoiy tajribaga asos solish bo'lib, odam bolasi faqat odamlar orasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Kishilar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan kishining qo'li ishga bormaydi. Har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Kishilar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti kopincha odamning ishlash qobiliyatini oshiradi, ayniqsa, gaplashish o'tirib qilinadigan ishlar. Odamlar yonidagi hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. Bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga “bayramga kelganday” keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun amerikalik olim Dj. Moreno sotsiometrik uslubni ishlab chiqqan edi.

Demak, muloqot kishilarning jamiyatda o'zari hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi.

Xulosa

Pragmalingvistika tilshunoslikning yoʻnalishi sifatida 1970 yillardan tadqiqot obekti sifatida oʻrganila boshlagan. Albatta, tilning pragmatik tabiati xususida qadimdan turli fanlarda qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Sokratdan avval ham, soʻng Aristotel davrida oʻrganilgan boʻlib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv ekan, uni roʻyobga chiqarishda soʻzlovchi va tinglovchi asosiy figura boʻlishi, notiqlik sanʼatida fikr uzatishda ovozning sifat oʻzgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qoʻshimcha nozikliklar berishi aytib oʻtilgan edi. Bejizga oʻtgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm gʻoyalari targʻib qilinmagan.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Oʻzbek tilshunosligining keyingi yillardagi yutugʻi sifatida semantik-funksional yondashuv va uning natijasida pragmalingvistik tahlil tadqiq etildi; Pragmalingvistika atamalariga izoh berish bilan birga ularning maqomi koʻrsatib berildi; Badiiy matn tushunchasi haqida maʼlumot berilib, bu kabi matnlar pragmalingvistik tahlil qilindi; Badiiy matndagi noverbal vositalarni tahlil qilish bilan badiiy matnni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilish koʻrsatib berildi.

Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilini oʻrganishga bagʻishlangan ishlarda, asosan, ikkita yoʻnalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

1. Lingvistik yoʻnalish. 2. Lingvopoetik yoʻnalish.

Uzoq davrlargacha tilshunoslar soʻzlovchining «maxsuloti» boʻlgan jumlaning oʻrganishga asosiy eʼtibor berdilar. Bu jumlaning yaratgan shaxs (subʼekt) esa nazardan chetda qoldi. Vaholanki, har bir konkret jumlada soʻzlovchining ruhiyati, madaniyati, dunyoqarashi va boshqalar oʻz ifodasini topadi. SHu tufayli ham soʻzlovchining gapiga qarab, uning kimligi haqida hukm chiqarish mumkin boʻladi. Bu esa til birligi boʻlgan gapning

qoliplari konkret sharoitda jumlar orqali yuzaga chiqib, naqadar rang-barang qo‘shimcha axborot bildirishidan dalolat beradi.

Uzatilayotgan axborot tilning muayyan qonun-qoidalari asosida shakllangani (intralingvistika) uning matn talablariga javob berishini bildiradi axborotning adresant tomonidan adresatga uzatilishida kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari (ekstralingvistika) katta ahamiyatga molik bo‘ladi.

Diskursda shaxs o‘zining tabiiy nutqiy va nonutqiy muloqotga kirishishi bilan, ijodiy tafakkuri va muayyan holatni yaratishi bilan, o‘zigagina xos bo‘lgan temperamenti, kommunikativ aktdagi faoliyati bilan, hissiy jarayonlarni boshidan kechirishi bilan individuallik kasb etadi. Bu esa diskursni yaratuvchi, uning rang-barangligini ta’minlovchi asosiy o‘zak **lisoniy subekt - shaxs** ekanidan dalolat beradi.

Pragmalingvistikaning lisoniy tadqiqot maydoniga dadil chiqishining sababi ham shaxs faoliyatining kommunikant sifatida barcha qirralarini o‘rganish, aloqa- aralashuvda ahamiyatli bo‘lgan barcha vosita, usul va uslublarni kommunikativ aktning tashkil etuvchisi sifatida tadqiq etishdan iboratdir. Kommunikativ aktda ishtirok etuvchilar - shaxslarning tiplari, ularning psixologik, sotsiologik, milliy, mantiqiy, etik, etnolingvistik, mental xususiyatlarini aniqlash va shu asnoda lisoniy shaxs tipologiyasini o‘rganish ichki va tashqi lingvistikaning mushtarak holda kommunikatsiyaga xizmat qilishini anglatadi. Bu esa nuqtiiy akt, nutq uslubi, nutqiy taktika va strategiya, nutqiy situatsiya, kommunikantlar o‘rtasidagi hamkorlik (hurmat, mulozamat, e‘zoz; kinoya, e‘tiborsizlik, mensimaslik...), noverbal va supersegment vositalar kabi masalalarni ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилида суперсинтактик бутунликлар. Филол.фан.ном.дисс.автореф. Тошкент, 1997.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент, 1981;
Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1995, 86-бет.
3. Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. Ташкент, Фан, 1988;
4. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. М., 1985, с. 19.
5. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. ДДА. –Т.:Тилшунослик институти,1997.-49 б.
6. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. –Т., 1980.
7. Гореликова М.Л.,Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста.– М: Русский язык, 2004.
8. Городникова М.Д. Эмоциональные речевые формулы в устрой коммуникации. В.Л. : Структурно-сем-ное исследование немецкой лексики. Калининский государственный университет. Калинин. 1980. с.53.
9. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати.Т.,Ўзадабий нашр, 1962.– 173-174.
10. Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978, с,99.
11. А.Н.Леонтьев. Общая понятие деятельности / в кн. Основы теории речевой деятельности. М.: Науке. 1974. с.9.
12. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.390.
13. Лутфуллаев Д. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик. Филол.фан.ном.дисс.автореф. Тошкент, 1997.
14. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. Тошкент, 1989;
15. Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз.-Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1997.-112 б.
16. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап. ЎТА. 1986, 6-сон, 28-32 бетлар.

17. Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда' гапларда семантик-синтактик асимметрия. Тошкент, 1984, 3-19-бетлар;
18. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, «Ўқитувчи», 1995; 10-11-бет.
19. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Ффд дисс. автореферати. Т., 2000.
- Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Ўқитувчи. Тошкент, 1995, 55-бет.
20. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Т., «Фан». 2008. 163-б.
21. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент, 2000, 7-8-бет.
22. Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси. Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 6-сон, 42-45-бетлар;
23. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1992, 3-120-бетлар;
24. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Филол.фан.ном.дисс.автореф. Самарқанд, 1994;
25. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол.фан.ном.дисс.автореф. Тошкент, 1993;
26. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши. Филол.фан.ном.дисс.автореф. Тошкент, 1994.
27. Урисбоева Г. Производные слова в синтаксической и прагматической функции в современном русском языке. Автореф. дисс. канд. фил. наук, Ташкент, 1998.
28. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. — Тошкент: Маънавият, 2006. —В. 12-13.
29. Формановская Н.И. Функциональные и категориальные сущность устойчивых формул общения. АДД. М.79.стр.29.

30. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 5 сентябрь.

31. Ўринбоев Б.,Солиев А. Нотиқлик маҳорати. Тошкент, 1984;

32. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Тошкент, 1980;

33. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Тошкент: Ўқитувчи. 1992. -110 б.

Internet manbalari:

1. www.wikiznanete.ru

2. window.edu.ru

3. dudulitsa.narod.ru

pragmalinguistics

**Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти
мутахассислиги битирувчи магистранти Феруза
Турсунованинг “Бадий матннинг прагматингвистик
таҳлили” мавзусидаги диссертациясига илмий раҳбар
хулосаси**

Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти мутахассислиги битирувчи магистранти Феруза Турсунованинг “Бадий матннинг прагматингвистик таҳлили” мавзусидаги магистрлик диссертацияси Кириш, 3боб, Хулоса, Адабиётлар рўйхатидан иборат бўлиб, татқиқотда берилган мавзунинг моҳияти очиқ берилган.

Диссертант бугунги ўзбек тилшунослигида янгилик бўлган прагматингвистик таҳлил масаласига қўл урган бўлиб, у назарий жиҳатдан тилшунос олимлар Шаҳриёр Сафаров, Абдулҳамид Нурмонов, Низомиддин Маҳмудов, Ҳамид Неъматов, Абдузукхур Абдуазизов, Муҳаммадхон Ҳақимов, Шарифа Искандарова, Сиддиқ Мўминов, Алижон Мамажонов кабиларнинг қарашлари асосида тадқиқотни олиб борган. Диссертация ишида прагматика, прагматингвистика, бадий матн таҳлили, бадий матнда, мулоқот жараёнида, турли паралингвизмлардан фойдаланиш масалалари берилган.

Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти мутахассислиги битирувчи магистранти Феруза Турсунованинг “Бадий матннинг прагматингвистик таҳлили” мавзусидаги диссертациясини тугалланган тадқиқот сифатида очиқ ҳимояга тавсия этиш мумкин.

Илмий раҳбар: доцент Маъмуржон САИДХОНОВ

20 май 2016 йил

**Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти
мутахассислиги битирувчи магистранти
Феруза Турсунованинг
“Бадиий матннинг прагматингвистик таҳлили” мавзусидаги
магистрлик диссертациясига
т а қ р и з**

Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти мутахассислиги битирувчи магистранти Феруза Турсунованинг “Бадиий матннинг прагматингвистик таҳлили” мавзусидаги магистрлик диссертациясида бугунги кунда ўзбек тилшунослигида энг долзарб масалалардан бири қаламга олинган бўлиб, прагматика, прагматингвистика, паралингвистика, бадиий асарнинг прагматингвистик таҳлили ҳақидаги назарий маълумотлар асосида амалий иш бажарилган.

Диссертант асосий муаммони ишнинг учта бобида ёритган: бадиий матн ва унинг хусусиятлари, прагматингвистика ва унинг ўрганиш объекти, бадиий матнни прагматингвистик таҳлил қилиш.

Мавзу моҳияти тадқиқотда очиқ берилган. Прагматингвистик таҳлил намунаси сифатида келтирилган паралингвизмлар, сукутнинг бадиий матндаги таҳлили, уларга прагматингвистик ёндашув каби масалалар ёритиб берилган.

Ишдаги айрим имловий ва техник хатоларни эътиборга олмаганда, Феруза Турсунованинг “Бадиий матннинг прагматингвистик таҳлили” мавзусидаги магистрлик диссертацияси шу каби тадқиқотлар талабига тўла жавоб беради ва иш яхши баҳога лойиқ.

**Дилфузахон Нурмонова,
филология фанлари номзоди, доцент**

